

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

KREDIT-IQTISOD FAKULTETI

“BANK HISOBI VA AUDIT” KAFEDRASI

MANSUROV JAVOHIRBEK BAXTIYOR O‘G‘LI

**“O‘ZBEKISTONDA KREDIT MA‘LUMOTLARI
ALMASHINUV TIZIMI”**

5230700-“bank ishi” bakalavriatta‘limyo‘nalishi

“HIMOYAGA RUXSAT ETILDI”

Fakultetdekani

____ dots.ifn. Saidov R.
(imzosi) (ilmiyunvoni, darajasi, F.I.SH)

“ ____ ” ____ 2017-yil

“HIMOYAGA RUXSAT ETILDI”

**“Bank hisobiva
audit” kafedrasimudiri**

____ i.f.n. Umarov Z.
(imzosi) (ilmiyunvoni, darajasi, F.I.SH)

“ ____ ” ____ 2017-yil

Bitiruvchi:

5230700-“Bank ishi” – ta‘lim

yo‘nalishi 4-kurs talabasi

Mansurov Javohirbek Baxtiyoro‘g‘li

(imzosi)

Ilmiyrahbar:

k.o‘q. Navroziva K.

(imzosi)

TOSHKENT – 2017

Men ,_____ ushbu BMIni mustaqil bajardim, ko'chirmachilik holati yo'qligiga javob beraman. Ko'chirmachilikka yo'l qo'ygan holatimda BMI kafedra mudiri taqdimnomasiga asosan rektor buyrug'I bilan bekor qilinishi va "qoniqarsiz" baho qo'yilishini bilaman.

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

“ ____ ” _____ 2017 yil

Toshkent shahri

“ _____ ” kafedrası

**Bitiruv malakaviy ishi dastlabki himoya bo'yicha komissiyaning
____ - sonli**

BAYONNOMASI

Eshitildi: _____

Qaror qilindi: _____

Komissiya a'zolari:

1. _____
2. _____
3. _____

**“Bitiruv malakaviy ishi himoyaga
tavsiya etiladi”
Kafedra mudiri**

“ ____ ” _____ 2017 yil.

KIRISH

Mavzusining dolzarbligi shundaki, hozirgi paytda asrimiz axborot asriga aylanib bormoqda. Bajarilishi rejalashtirilgan har bir loyiha, hoh u siyosiy, hoh iqtisodiy yoki ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lsin, albatta, axborotga tayangan, asoslangan holda amalga oshirilmoqda. Chunki bajarilishi ko'zda tutilgan loyihaning dastlabki nusxasini yaratish uchun, uni qanday amalga oshirish kerak, nimalarni hisobga olish kerak, ilgari bu kabi loyiha amalga oshirilganmi, amalga oshirilgan bo'lsa, qanday kamchiliklarga yo'l qo'yilgan savollariga javob topish zarur. Bu kabi savollarning javobi esa unga aloqasi bo'lgan ma'lumotlarni o'rganish, ko'zdan kechirish, ya'ni axborot olishni talab etadi. Hozirgi kunda dunyodagi har bir soha va tarmoqlar axborot berish va axborot olish jaroyoni bilan bevosita bog'langan va aloqada desak mubolag'a bo'lmaydi. Axborot almashinuv orqali juda ko'plab muammolarni oldini olish va yechimini topish mumkin. Shu sababli ham axborot almashinuvining tezkor va ishonchli tizimlarini joriy etish, samarali faoliyat yuritishini ta'minlash kun oldiga qo'yilgan dolzarb masalalardan biriga aylangan. Bu borada mamlakatimizda ham bir qator islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Bu kabi islohotlardan eng ahamiyatlisi bu mamlakatimizda kredit axborot almashinuv tizimining tashkil etilganligidir. Chunki, mamlakat iqtisodiyotiga va aholi turmush darajasiga banklar va moliya kredit tashkilotlari o'zining kredit operatsiyalari orqali sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bank muassasalari va moliya kredit tashkilotlari tomonidan berilayotgan kreditlarning qaytarmaslik riskini oldini olish, kreditlardan maqsadli va samarali foydalanishni ta'minlash uchunushbu moliyaviy muassasalar qarz oluvchi tog'risida yetarli va kerakli axborotga ega bo'lishi lozim. Qarzdorlar to'g'risidagi kredit axborotining yetishmasligi muammosini hal etish va bunday kredit axborotini yig'ish, umumlashtirish va taqdim etish tizimini, ya'ni kredit axboroti almashinuvi tizimini tashkil qilishni taqozo qildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 23-apreldagi «Qarz oluvchilarning kredit tarixi to'g'risidagi axborotni hisobga olish tizimini shakllantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori, banklar

va moliya kredit tashkilotlariga kredit axborotiga ega bolishlari va kredit axboroti almashinuvi tizimini shakllanishiga sharoit yaratdi. Mazkur qaror asosida kredit axborotini hisobga olishning ikki pog'onali tizimi - Markaziy bankda Kredit axboroti milliy instituti va O'zbekiston banklari assotsiatsiyasida Banklararo kredit byurosi tashkil etildi.

Kredit axboroti almashinuvi tizimini tashkil qilishdan ko'zlangan maqsad banklarni kredit oluvchilar to'g'risidagi axborot bilan ta'minlash, bank tizimida kredit riskini kamaytirish va kredit intizomini mustahkamlashga erishish, shuningdek, tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy obro'sini oshirishga sharoit yaratishdir.

Kredit axboroti - kredit bitimining holati, berilgan ta'minot bo'yicha (garov, kafolat, kafillik, kreditni to'lamaslik xavfini sug'urtalash va ta'minotning boshqa turlari bo'yicha) majburiyatlarning bajarilishi haqidagi ma'lumotlar, shuningdek kredit axboroti subyektining kredit qobiliyatini, moliyaviy holatini, to'lov qobiliyatini, to'lov intizomini va o'zga sifatlarini aniqlashga ko'maklashuvchi boshqa axborot, shu jumladan:

- kredit axboroti subyektini va kredit axborotini yetkazib beruvchini identifikatsiyalash imkonini beradigan;
- kredit axboroti subyektining fuqarolik - huquqiy shartnoma bo'yicha pul summasini to'lash majburiyatlari to'g'risidagi;
- kredit axboroti subyektiga aloqador shaxslar to'g'risidagi;
- kredit bitimi bilan bog'liq mol-mulk to'g'risidagi ma'lumotlar.

Shuni ta'kidlab o'tishimiz kerakki, yurtboshimiz tashabbusi bilan ishlab chiqilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli 2017-yil 7-fevraldagi Farmoni davlatimiz va jamiyatimiz, qolaversa, iqtisodiyotimiz rivojida muhim o'rin tutadi.

Ushbu farmonning uchinchi ustuvor yo'nalishida iqtisodiyotimizni, qolaversa, bank tizimini yanada isloh qilishning mexanizmi ishlab chiqilgan.

Mamlakatimizda makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish maqsadida quyidagi yo'nalishlar belgilab olindi:

- Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, ayniqsa, valyuta bozori holati ustidan tizimli monitoringni amalga oshirish, zaruriyat tug'ilganda, milliy valyuta va ichki bozordagi narxlarning barqarorligini oshirish, makroiqtisodiy muvozanatni saqlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlashga yo'naltirilgan qonunchilikni takomillashtirish;
- Milliy valyutaning va ichki bozordagi narxlarning barqarorligini ta'minlash;
- Valyutani tartibga solishning ilg'or bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish;
- Davlat mablag'lari haqidagi ma'lumotlarning shaffofligini ta'minlashga, pul-kredit siyosati vositalarini yanada takomillashtirish hamda ularning samaradorligini oshirishga, naqd pul muomalasi mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish;
- Bank faoliyatini tartibga soluvchi zamonaviy tamoyil va mexanizmlarni joriy qilish, ularning samarali faoliyat ko'rsatishiga yo'l qo'ymayotgan to'siqlarni bartaraf etish va boshqalar.¹

Bugungi kunda Respublikamizda iqtisodiyotni rivojlantirishda respublikamiz tijorat banklarining o'rni beqiyosdir. Ayni paytda ular o'rtasidagi axborot almashinuvining rivojlanishi ham bunday rivojlanishga o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi. Chunki axborot almashinuvi orqali banklar tomonidan beriladigan kreditlarning qaytmaslik xatarini kamaytirish va oldini olish mumkin deb ayta olamiz.

Tadqiqotning predmeti sifatida respublikamiz tijorat banklaridakredit axborot almashinuvi bo'yicha yuzaga keladigan munosabatlar hisoblanadi.

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni, 2017-yil 7-fevral.

Tadqiqotning obyekti O'zbekiston respublikasi tijorat banklarini hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishining maqsadi tijorat banklarining kredit axborot almashinuv tizimining huquqiy, iqtisodiy va amaliy jihatlarini yoritib berish, shuningdek uning chet el amaliyotida sinovdan o'tgan rivojlantirish usullarini o'rganish asosida hamda ularni O'zbekiston tijorat banklarida joriy qilish va shakllantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Asosiy maqsaddan kelib chiqqan holda, qo'yidagilar bitiruv malakaviy ishining vazifalarini tashkil etadi:

- kredit axborot almashinuvining iqtisodiy, huquqiy asoslarini o'rganib chiqish;
- kredit axborot almashinuviga oid statistik ma'lumotlarni to'plash;
- to'plangan ma'lumotlar asosida tahlil amaliyotini o'tkazish;
- tijorat banklarida kredit axborot almashinuvi yuzasidan vujudga kelayotgan muammolarni aniqlash va ularga yechim ishlab chiqish;

Mavzuning nazariy-amaliy ahamiyati shundaki, undagi alohida amaliy takliflar mamlakatimizning tijorat banklari, kredit byurosi va Kredit Axboroti Milliy Instituti faoliyatida foydalanilishi mumkin.

Bitiruv malakaviy ishi tarkibining qisqacha tavsifi. Bitiruv malakaviy ishining tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar o'z ichiga oladi. Bitiruv malakaviy ishining birinchi bobi kredit ma'lumotlari almashinuv tizimi va uni tashkil qilishning nazariy asoslari, ikkinchi bobda O'zbekistonda tijorat banklari kredit ma'lumotlari almashinuv tizimi, faoliyati va uning tahlili, uchinchi bobda esa ma'lumotlari almashinuvi xorij tajribasi va axborot xavfsizligi muhofazasini ta'minlash bo'yicha qo'yiladigan talablarga qaratilgan. Bitiruv malakaviy ishida bitta jadval, oltita kredit axborot almashinuviga aloqador dinamik o'zgarishlarni o'zida ifodalovchi rasmlar ko'rsatib o'tilgan. Bitiruv malakaviy ishi 76 sahifadan iborat.

1-BOB. KREDIT MA'LUMOTLARI ALMASHINUV TIZIMI VA UNI TASHKIL QILISHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1. Kredit axborot almashinuv tizimi mohiyati, ahamiyati va zarurligi

Ma'lumki, bozor munosabatlari sharoitida Mustaqillikdan so'ng korxonalar va bank o'rtasidagi munosabatlarda juda keskin o'zgarishlar ro'y berdi. Bank nazorat qiluvchi idoradan tijorat korxonasiga aylandi, rejali kreditlash amaliyotiga barham berildi, bank tizimida o'zaro raqobat vujudga keldi, mijoz uchun kurash kuchaydi, kreditlash masalalarini banklar mustaqil hal qiladigan bo'lishdi, bu sohadagi ichki me'yoriy hujjatlarini (ya'ni o'z kredit siyosatlarini) ishlab chiqish yo'lga qo'yildi. Tabiiyki, kredit banklarning asosiy daromad manbasi bo'lib qoldi. Tadbirkorlik subyektlari sonining ko'payishi natijasida bank mijozlari va qarzidorlarining soni hamda kredit qo'yilmasining hajmi ham osha bordi.

Lekin, kreditlash jarayoni murakkab jarayon bo'lib, u bank uchun ham, mijoz uchun ham og'ir va mas'uliyatli kechadi. Bu qaltisliklarni samarali boshqarish maqsadida Bank mijozning moliyaviy holatini, balans ko'rsatgichlarini, loyihasining rentabelligini qay darajada o'zini oqlashini, tahlil qilish zarurati bilan belgiladi. Bankni mijoz faoliyatiga oid barchato'liq va ishonchli axborotni jumladan, uning kredit tarixi, boshqa banklar oldida ma'lumotlar, jumladan ilgari kredit olgan-olmaganligi to'g'risida, hozirgi vaqtda boshqa bankda qarzi bor-yo'qligi, uchinchi boshqa shaxsning krediti uchun kafillik bergan-bermaganligi, korxonaning va loyiha menejerlarining malakasi, rahbarlarning loyihani amalga oshirish va biznes sohasidagi malakasi, korxona va uning rahbariyatning tadbirkorlar doirasidagi obro'si va boshqalar haqida ma'lumot olishdan manfaatdor va albatta qiziqtiradi. Bunday ma'lumotlarni olish va tahlil qilish ko'p vaqtni oladi, shuning uchun kredit buyurtmasini ko'rib chiqish, odatda, mijozning jarayoniga ko'p vaqt kerak bo'lishi esa mijozning noroziligiga sabab bo'ladi, bu norozilikni esa u pul mablag'i qisqa muddatlarda kerak ekanligi bilan izohlaydi. Ayrim hollarda, kreditni o'z vaqtida qaytarish bo'yicha istiqbollar asoslangan tarzda ishlab chiqilgan bo'lishiga va pul mablag'lari tushumlari ko'rsatkichlarining prognoz qiymatlari optimistik bo'lishiga qaramay, muammolar baribir yuzaga keladi. Korxona kreditni qaytarishga qobiliyatli va loyihadan kutilayotgan pul

oqimi yetarli bo'lsada, keyinchalik muammolar vujudga keladi. Kredit berilgandan so'ng, moliyaviy ko'rsatkichlarni nazorat qilib borish qiyinlashadi, chunki, qisqa vaqt ichida korxonaning moliyaviy holati va faoliyatida esa qisqa vaqt ichida juda ko'p kutilmagan o'zgarishlar yuz berishi ehtimoldan holi emas. Demak, muammoning sababini nafaqat loyihani ko'rib chiqishdan, yoki korxonaning moliyaviy ahvolidan, balki, qarzdorning hatti-harakatidan qidirish lozim. Kredit qaytmasligi riskining sababi ba'zan qarzdorning kredit olgandan keyingi samarasiz va hattoki g'arazli hatti-harakati natijasida yuz beradi, ya'ni:

- a) qarzdorning boshqa tijorat banklaridan kredit olganligi;
- b) qarzdorning uchinchi shaxslar majburiyatlari bo'yicha kafillik olganligi, bu pul mablag'larining chalg'ishiga, loyihaning bajarilmay qolishiga va kreditni qaytarish mumkin bo'lmasligiga olib kelishi mumkin;
- c) qarzdorning o'z mol-mulkini uchinchi shaxslar majburiyatlari ta'minoti sifatida kafillikka berishi, bu majburiyatlar bajarilmagan taqdirda u o'z xo'jalik faoliyati uchun zarur bo'lgan mol-mulkidan mahrum bo'lishi mumkin;
- d) qarzdorning sho'ba kompaniyalarini ochishi (yoki boshqa kompaniyalar kapitalida ishtirok etishi), ular bosh kompaniya majburiyatlari bo'yicha majburiyatga ega bo'lmaydilar, bu esa sun'iy bankrotlik uchun sharoit yaratadi;
- e) qarzdorning boshqa banklarda hisob raqamlarini ochib, o'z oborotlarini kreditor-bankdan yashirib operatsiyalar o'tkazishi;
- f) qarzdorning boshqa banklardan kredit olishi va boshqa shaxslarning majburiyati ta'minoti sifatida kafilliklar berishi natijasida ular o'z majburiyatlarini bajarmagan taqdirda mulkdan qisman yoki to'liq mahrum bo'lishi;
- g) pul mablag'larini kreditlangan loyihadan chetlashtirilishi, masalan, qimmatbaho avtomobillar sotib olinishi, ofisni ta'mirlash ishlari va boshqa ortiqcha xarajatlar qilinishiga yo'l qo'yiladi. Aslida, loyihaning ishga tushirilishidan va boshqa faoliyatdan tushgan tushum korxona oborotida bo'lib, korxonaga foyda keltirib, kredit va uning foizlarini to'lash manbasi bo'lishi lozim;

h) kredit olgandan so'ng, qarzdor boshqa banklardagi hisobraqamlaridan pul aylanmalarini amalga oshirib, ularni bankdan yashiradi.

Korxonaning kreditlari, bergan kafilliklari va boshqa shaxsning majburiyati ta'minoti yuzasidan garov bo'yicha majburiyatlari uning aktivlaridan bir necha barobar oshib ketishi mumkin. Oqibatda qarzdorning bu hatti-harakatlari loyiha ning samarali ishlamasligiga sabab bo'ladi, kreditni qaytarish qobiliyatiga salbiy ta'sir qiladi va kredit qaytmasligi xavfini oshiradi.

Yuqoridagi kabi holatlar banklarni loyiha bo'yicha axborotni tahlil qilish ishlaridan tashqari, qarzdorlarning o'zlari haqida ham ma'lumot yig'ishga majbur qiladi. Kredit so'rab murojaat qilgan shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlarning yetishmasligi, kredit bo'yicha qaltisliklar riskining oshishiga, kredit buyurtmasini ko'rib chiqish jarayonining cho'zilishiga, kredit foizining hamda mijozning xizmatlari va mahsulotlari tannarxining oshishiga, moliyaviy holatining yomonlashuviga olib keladi. Bunday ma'lumotlarni yig'ish esa bankdan ko'p vaqt va mablag' talab qiladi.

Qarz oluvchilarning moliyaviy holatini va taqdim etilgan loyihalarni tahlil qilishdan tashqari, kredit riskini kamaytirishning muhim omillaridan biri qarz oluvchilar to'g'risida xborotga ega bo'lishdir. Buning uchun ular to'g'risida axborot yig'ish kerak bo'ladi, bu esa ko'p vaqt va mablag' talab etadi.

Kredit axboroti - qarzdorning qarzni qanday qaytarganligi, agar u boshqa shaxslarning kreditlari uchun kafillik bergan bo'lsa, ularni qanday bajarganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Kredit axboroti almashinuvi tizimi - kredit axborotini yig'ish, umumlashtirish va taqdim etishga ixtisoslashgan maxsus tashkilotlar, qarz beruvchi, qarzdorlar, axborot-kommunikatsion vositalari hamda tegishli me'yoriy hujjatlardan iborat.

Banklar, boshqa kredit tashkilotlari, notariat, kadastr, lizing va sug'urta kompaniyalarining hamda boshqa korxonalarning ma'lumotlari axborot olish manbasi bo'lib xizmat qiladi. Qarzdorlar to'g'risidagi ma'lumotni ixtisoslashgan tashkilotlarga yuborish yoki ulardan olish orqali kredit axboroti almashiniladi.

Kredit axboroti almashinuvi ba'zi davlatlarda kredit byurosi, boshqalarida esa Markaziy bankning maxsus bo'linmasi orqali amalga oshiriladi. Kredit byurolari – bu kredit axborotini yig'ish, qayta ishlash, saqlash va taqdim etish bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxs bo'lib, qarzdorlar to'g'risidagi axborotni to'lov evaziga taqdim etadi. Markaziy bankning bunday faoliyat bilan shug'ullanadigan maxsus bo'linmasi kredit axboroti davlat reestri deb yuritiladi, axborotni bepul beradi. Bu tizim tufayli banklar qarzdorning boshqa banklardagi kreditlari to'g'risida ma'lumot olib, ma'suliyatsiz qarzdorni aniqlaydi va kreditning qaytmaslik xavfini kamaytiradi. Shuningdek, tizim qarzdorning kreditni qaytarishdan manfaatdorligini oshiradi, tadbirkorlarni legal ishlashga o'rgatadi, kredit intizomini mustahkamlaydi, bozorda sog'lom raqobatni vujudga keltirishga, jami ijtimoiy mahsulotga nisbatan kredit qo'yilmalari hajmining o'sishiga ijobiy ta'sir qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida tashkil etilgan Kredit axboroti milliy instituti (KAMI) yuqorida aytganimizdek, kredit axboroti davlat reestriga misol bo'laoladi. Deylik, bankka bir korxona kredit so'rab murojaat qildi. Bank esa u ilgari kreditni qanday qaytarganligi va hozirgi vaqtda qarzi bor-yo'qligi to'g'risidagi axborotni olish uchun KAMIGA elektron so'rov yuboradi. KAMI esa, real vaqt rejimida bankka elektron u haqda axborot yuboradi. Bu axborotning ijobiy yoki salbiy bo'lishi korxonaning kreditni ilgari qanday to'laganligiga bog'liq. Demak, har kim kelajakda kreditni qanday olishini, qanday obro'ga ega bo'lishini o'zi hal qiladi. Ijobiy kredit axboroti bo'lgan shaxslarga kredit olish jarayoni tezlashishi, kredit ta'minoti uchun talab summasi kamayishi mumkin. Qarzdor to'g'risidagi axborot u kreditni o'z vaqtida qaytarilsa 5 yil, agar uni qaytarishda kechikishlarga yo'l qo'yilsa, kamida 10 yil saqlanadi. Odatda aksariyat mamlakatlarda kredit axboroti almashinuvi tizimini tashkil etish uchun xorijiy kredit axboroti kompaniyalarining sho'ba korxonalari tashkil etiladi. Boshqa bir mamlakatlarda xorijdan kredit mablag'lari va mutaxassislar jalb qilingan yoki dasturiy ta'minot sotib olingan. Masalan, Italiyaning "CRIF" kompaniyasi 2005-

yilda “Chexiya kredit byurosi”ning, 2006-yilda “Slovakiya kredit byurosi”ning, 2007-yilda esa Polshaning “InfoData” kredit axboroti kompaniyasining aktsiyalarini to’liq sotib olgan. Shuningdek, u Rossiyadagi “Kredit tarixi milliy byurosi”ning ham ta’sischilaridan biridir. Ozarbayjon Milliy bankida 2005-yilda tashkil etilgan Davlat kredit reestri orqali kredit axboroti almashinuvini tashkil etishda Yevropa taraqqiyot va tiklanish banki, Jahon banki, orvegiya Markaziy banki va Bundesbank yordami jalb qilingan. Armanistonda foydalanilayotgan Dasturiy ta’minot esa AQShdan sotib olingan. Bank tizimining barqarorligini ta’minlash, ularni qarzidorlar to’g’risidagi axborot bilan ta’minlash orqali kredit xatarini kamaytirish, moliya-kredit intizomini mustahkamlash maqsadida Markaziy bank bu tizmini tashkil ishlarini va xarajatlarini o’z zimmasiga oldi.

1.2. Kredit axboroti almashinuvining iqtisodiy mohiyati va shakllari

Qarzdorlar to’g’risidagi kredit axborotining yetishmasligi muammosini hal qilish uchun bunday kredit axborotini yig’ish, umumlashtirish va taqdim etish tizimini, ya’ni kredit axboroti almashinuvi tizimini tashkil qilishni taqazo qildi.

Shu o’rinda, haqliadolatli savol tug’iladi: kredit olishga da’vogar bo’lgan korxonalar uchun kredit axboroti almashinuvi qanday ahamiyatga ega? Demak, kredit axboroti almashinuvi tizimi - kredit axborotini yig’ish, umumlashtirish va taqdim etishga ixtisoslashgan tashkilotlar, qarz beruvchi, qarzdorlar, axborot-kommunikatsion vositalari hamda tegishli me’yoriy hujjatlardan iborat.

Kredit olishga da’vogar bo’lgan korxonalar uchun kredit axboroti almashinuvi qanday ahamiyatga ega yoki kredit tashkilotlari faqat ular to’g’risida ma’lumot olishlari uchungina kerakmi degan haqli savol tug’iladi, albatta. Qarzdorlar to’g’risidagi ma’lumotni ixtisoslashgan tashkilotga yuborish yoki undan olish orqali kredit axboroti almashiniladi. Barcha banklar, notarial va kadastr idoralari, lizing va sug’urta kompaniyalardan o’z mijozlari to’g’risidagi olingan ma’lumotlar axborot manbasi bo’lib xizmat qiladi.

Turli mamlakatlarda kredit axboroti almashinuvi tizimi turli shakllarda tashkil etilgan. Chunonchi, ularning ayrimlarida kredit byurosi tashkil etilgan bo'lsa, boshqalarida Markaziy bankning kreditorlar va qarzdorlar manfaatlarini himoya qilish, shuningdek bank nazoratini o'rnatish funktsiyalaridan kelib chiqadigan maxsus bo'linmalarsini (ular Kredit axboroti Davlat reestri deb ataladi) tashkil qilingan va faoliyat yuritadi. Kredit axboroti almashinuvi tizimini saqlash xarajatlari Markaziy bank tomonidan qoplanadi - kredit axboroti banklarga, asosan, bepul beriladi. Ayni paytda jahonning 70 ta mamlakatida kredit axboroti davlat reestrlari tashkil etilgan.

Kredit byurolari – bu kredit axborotini yig'ish, qayta ishlash, saqlash va taqdim etish bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxs bo'lib, qarzdorlar to'g'risidagi kredit axborotini kredit tashkilotlari va boshqa iste'molchilarga ma'lum haq to'lash evaziga taqdim etadi. Bunday faoliyat bilan asosan xususiy korxonalar shug'ullanadi. Dunyodagi kredit byurolarining 4 foizi Davlatga, 9 foizi Sanoat uyushmalariga va savdo palatalariga, 28 foizi bank va moliyaviy tashkilotlarga, 59 foizi esa boshqa kreditorlarga tegishli.²

Kredit byurolari universal bo'lishi mumkin, yoki turlihar xil sohalarga ixtisoslashishi mumkin. Masalan, alohida byurolar ba'zilar jismoniy shaxslar to'g'risida axborot yig'sa, ayrimlari yuridik shaxslar to'g'risidagi, boshqalari esa kreditning ayrim turlari masalan, iste'mol krediti to'g'risidagi kredit axboroti yig'ish va taqdim etishga ixtisoslashgan.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, MDH mamlakatlarining birortasida ham tashkil etilgan kredit byurolari faoliyati hali kutilgan natijalarni berganicha yo'q. Buni quyidagicha asoslash mumkin:

kredit axborotini berish uchun qarzdorning roziligi kerak, barcha kreditlar va qarzdorlar haqida kelib tushayotgan ma'lumotlar ustidan nazorat qilish esa mumkin emas. Xorijiy ekspertlarning hisob-kitoblariga qaraganda, kredit byurolari faoliyatining yo'lga qo'yilishi juda katta vaqt va pul mablag'larini taqozo etadi

²N.Xolmurodov "kredit axboroti almashinuvi ahamiyati" Jurnal "BPK", 2012-yil, Toshkent..

(kamida 2-3 mln. AQSH dollari va 5-6 yil vaqt kerak bo'ladi). Bundan tashqari, xalqaro ekspertlarining fikricha, tadbirkorlikning hamma subyektlari ham qonuniy ish yuritmaydi, ularning ko'pchiligi daromadining to'liq kattagina qismini oshkor qilmaydi va o'zi haqida axborot berishdan manfaatdor emas.

Kredit axboroti almashinuvi tajribasini boshqa mamlakatlar miqyosida ko'ramiz. Amerika va Yevropa mamlakatlarida kredit axboroti almashinuvi tizimi XIX-asrning 2-yarmida vujudga kelib, dastlabki kredit byurosi Avstriyada, AQShda va Shvetsiyada tashkil etilgan. Kredit axboroti Davlat reestri esa 1934-yilda Germaniyada, keyin 1986-yilda Avstriyada va 1990-yilda Argentinada tashkil etilgan. Bu kredit byurolari ayrim mamlakatlarda faqat salbiy kredit axborotini beradi (barcha amaldagi kredit byurolarining 32 foizi), boshqa mamlakatlarda esa ular ham salbiy, ham ijobiy axborot berishlari mumkin (68%)³.

Shuningdek, ba'zi mamlakatlarda (Avstriya, Argentina, Belgiya, Italiya, Ispaniya va boshqalar) kredit axboroti almashinuvining ikki pog'onali tizimi, ya'ni kredit byurolari ham, Kredit axboroti davlat reestri ham faoliyat ko'rsatmoqda. MDH davlatlarining barchasida qarzdorlar to'g'risidagi ham pozitiv, ham negativ kredit axboroti qabul qilinadi va taqdim etiladi. Belarus, Moldova, Rossiya Federatsiyasi, Ukraina va Qozog'istonda kredit axboroti almashinuvini tartibga soluvchi qonun qabul qilingan, qolgan davlatlarda mazkur qonunni ishlab chiqish ustida ish olib borilmoqda.

Biznes-reja parametrlari muhim indikator vazifasini o'taydi, ularning uddalanmasligi kreditning o'z vaqtida qaytmasligining muhim belgisidir. Bunday hollarda yuzaga kelgan vaziyatni qarzdor bilan muhokama qilib, kelgusidagi ishlarni rejalashtirish, zarur bo'lsa kredit shartnomasi shartlarini qayta ko'rib chiqish (kreditni qoplashning ichki grafigini yoki/va oxirgi muddatini, foiz stavkasini o'zgartirish, kredit va foizlarni to'lashda imtiyozli davr berish) va qarzdorning moliyaviy holatini sog'lomlashtirish choralarini ko'rishga to'g'ri keladi. Kredit qaytmasligi riskining bunday oshishi ko'p hollarda kredit olgandan

³www.iqtisodiyot.uz

so'ng, qarzdorning quyidagi samarasiz va g'arazli hatti-harakatlari natijasida yuz beradi, ya'ni:

- qarzdorning boshqa banklardan kredit olishi;
- qarzdorning boshqa shaxslarning majburiyati ta'minoti sifatida kafil-liklar berishi, bu esa loyihaning amalga oshirilishida va kreditning qaytarilishida uzilishlarga olib kelishi mumkin;
- qarzdor tomonidan uchinchi shaxslarning majburiyati ta'minoti sifatida o'z mulkini garovga qo'yishi natijasida yoki ular o'z majburiyatlarini bajarmagan taqdirda qarzdor xo'jalik faoliyatida zarur bo'lgan mulkidan qisman yoki to'liq mahrum bo'lishi oqibatida kreditni qaytarishi uchun yetarli darajada foyda ololmasligi xavfi tug'iladi;
- pul mablag'larini kreditlangan loyihadan chetlashtirish (qimmatbaho avtomobillar sotib olinishi, ofisni ta'mirlash ishlari va boshqa ortiqcha xarajatlar qilish) hollariga yo'l qo'yiladi. Loyihaning ishga tushirilishidan va boshqa faoliyatdan tushgan tushum korxona oborotida bo'lib, unga foyda keltirishi lozim. Aks holda loyihaning samarali ishlamasligi va kreditning qaytmaslik xavfi oshadi;
- kredit olgan korxona sho''ba korxonalar tashkil etib, korxona oborotidagi mulkning shu'ba korxonaga berilishi natijasida sun'iy bankrotlik uchun sharoit yaratiladi;
- kredit olgandan so'ng, qarzdor boshqa banklardagi hisobraqamlaridan pul aylanmalarini amalga oshirib, ularni kreditor-bankdan yashiradi.

Masalan, jahon bank amaliyotida yirik miqdorda muddati o'tgan krediti bo'lgan shaxs, ikkinchi bankka kredit so'rab hujjat taqdim qilishda mavjud kreditini balansda ko'rsatmagan va sotib olinayotgan moddiy boyliklarni garovga qo'yib kredit olgan. U o'z mulkini boshqa shaxsning majburiyati ta'minoti uchun garovga qo'ygan, o'zi esa boshqa kreditlar uchun kafil bo'lgan.

Qarzdor-korxona kredit olingan loyihaga aloqasi bo'lmagan xarajatlar amalga oshirib, shu'ba korxonalar tashkil etib, ularning ustav kapitaliga o'z mulkini

qo'yganligi (ta'sis shartnomasida esa korxona va shu'ba korxona bir-birining majburiyati uchun javobgar emasliklari ko'rsatiladi) holatlari ham uchrab turadi.

Oqibatda korxonaning kreditlari, bergan kafilliklari va boshqa shaxsning majburiyati ta'minoti yuzasidan garov bo'yicha majburiyatlari uning aktivlaridan bir necha barobar oshib ketgan. Qarzdorning bu hatti-harakatlari uning kreditni qaytarish qobiliyatiga salbiy ta'sir qiladi va kredit qaytmasligi xavfini oshiradi.

Qarz oluvchilarning moliyaviy holati va taqdim etilgan loyihalarni tahlil qilishdan tashqari, kreditning qaytmaslik xatarini kamaytirishning muhim omillaridan biri qarz oluvchilar to'g'risida axborotga ega bo'lishdir. Bu axborot o'z ichiga, kredit olishga talabgor bo'lgan shaxsning ilgari kreditlarini qanday qaytarganligi, hozirgi vaqtda boshqa banklarda so'ndirilmagan krediti yoki bo'lmasa kafilliklarining mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotlarni oladi.

Agar yuqorida aytilgan majburiyatlar talabgorda bo'lsa unda mijoz bir kreditini qaytara olmay qolgan taqdirda bu holat zanjirsimon tarzda boshqa qarzlarning to'lanishiga salbiy tasir qiladi.

Kredit axboroti - qarzdorning qarzni qanday qaytarganligi, agar u boshqa shaxslarning kreditlari uchun kafillik bergan bo'lsa, ularni qanday bajarganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Kredit axboroti almashinuvi tizimi esa kredit axborotini ig'ish, umumlashtirish va taqdim etishga ixtisoslashgan maxsus tashkilotlar, qarz beruvchilar, qarzdorlar, axborot yuboruvchilar, axborotdan foydalanuvchilar, axborot-kommunikatsion vositalari hamda tegishli me'yoriy hujjatlarni o'z ichiga oladi. Kredit tashkilotlari, notariat, kadastr, lizing va sug'urta kompaniyalari hamda boshqa korxonalarning, shuningdek davlat idoralarining ma'lumotlari axborot olish manbai hisoblanadi. Qarzdorlar to'g'risidagi ma'lumotni ixtisoslashgan tashkilotlarga yuborish yoki ulardan olish orqali kredit axboroti almashiniladi.

Shunday qilib, kredit axboroti almashinuvi tizimi kreditorlarni qarzdorlar to'g'risidagi axborot bilan ta'minlab ularning kredit riskini kamaytirsam, tadbirkorlik subyektlarining kreditni qaytarishdan manfaatdorligini oshirib,

tadbirkorlik doirasida o'z obro'si uchun urashishga undaydi, jamiyat esa sog'lom raqobat muhitiga va barqaror kredit tizimiga ega bo'ladi.

Mantiqan, kredit axboroti almashinuvi tizimini tashkil qilishdan asosiy maqsad kredit tashkilotlarini qarz oluvchilar to'g'risidagi axborot bilan ta'minlash, ularda kredit xatarini kamaytirish va kredit intizomini mustahkamlashdan iborat.

Kredit axboroti almashinuvi tizimining tarixi. Qarzdorlar to'g'risida kredit axboroti almashinuvining ilk shakllari XIX-asrda paydo bo'lgan. Nyu-Yorkda savdogarlar tushum hajmini oshirish maqsadida nasiyaga (kreditga) tovar sotishni yo'lga qo'ydilar, o'zlarini noto'lovlar xataridan xoli qilish uchun xaridorlar (mijozlar) haqidagi ma'lumotlarni bir joyga to'plashga aror qildilar. 1841-yilda ipak mahsulotlari sotuvchisi Nyu-Yorklik L. Teppen ssuda so'rab murojaat qilgan shaxslarning to'lovga qobiliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'uvchi va tahlil qiluvchi "Mercantile Agency" – maxsus agentlikni tashkil qildi. Qarzdorlik haqidagi a'lumotlarni yig'ib L. Teppen yiliga 100-200 dollar to'lash sharti bilan mijozlarga sota boshladi. Ilk kredit byurosi shu tariqa tashkil bo'lgan.

1.3. O'zbekistonda kredit axborot tizimi shakllanishi va uning me'yoriy-huquqiy asoslari

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2011-yilning 4-oktyabrida O'zbekiston Respublikasining "Kredit axboroti almashinuvi to'g'risida"gi Qonunini imzoladi. Mazkur Qonunni Qonunchilik palatasi 2011-yil 11-avgustda qabul qilgan. Senat 2011-yil 26-avgustda ma'qullagan va u 2012-yil 1-yanvardan e'tiboran kuchga kirgan. Qonun 28 ta moddadan iborat bo'lib, u kredit axboroti almashinuvi borasidagi munosabatlarni tartibga soladi.

Qonunda kredit axboroti almashinuvi bilan bog'liq asosiy tushunchalar, kredit byurosini davlat o'yxatidan o'tkazish va kredit byurosi faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya berish, litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish, tugatish, shuningdek uni bekor qilish yoki qayta rasmiylashtirish, kredit byurosini qayta tashkil etish va tugatish, Markaziy bankning kredit byurolari faoliyatini

tartibga solish va nazorat qilish borasidagi vakolatlari, kredit byurosining huquqlari, majburiyatlari, yillik hisoboti, kredit axborotini kredit byurolariga taqdim etish, kredit axboroti almashinuvi to'g'risidagi shartnoma, kredit axborotini taqdim etishga va uning almashinuviga doir cheklashlar, nizolarni xal etish, kredit axboroti almashinuvi to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik belgilab berilgan.

Qabul qilingan Qonunga muvofiq, kredit byurosi - qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tashkil etilgan va kredit axboroti almashinuvini amalga oshirish bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi yuridik shaxs.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Kredit byurosini davlat ro'yxatidan o'tkazadi, uning faoliyatini litsenziyalaydi va nazorat qiladi. Kredit byurosini davlat ro'yxatidan o'tkazish va litsenziya berish uchun O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga joylashgan yeri (pochta manzili) ko'rsatilgan holda ariza berilib, unga muassislarning umumiy yig'ilishining kredit byurosini tashkil etish to'g'risidagi bayonnomasi, kredit byurosining ta'sis hujjatlari, kredit byurosining raxbari va muassislari haqidagi ma'lumotlar, kredit axborotini ruxsat etilmagan xolda unga kirishdan, yo'q qilib yuborishdan, o'zgartirishdan, undan foydalanishdan yoki uni oshkor etishdan himoya qilishni ta'minlovchi dasturiy-texnikaviy kompleksning parametrlari va joylashuvi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki belgilagan talablarga muvofiqligini tasdiqlovchi hujjatlar, kredit byurosining ustav fondi shakllantirilganligini tasdiqlovchi bank hujjati, davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun davlat boji to'langanligi to'g'risidagi bank to'lov hujjati ilova qilinadi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki kredit byurosini davlat ro'yxatidan o'tkazishni va litsenziya berishni bir qator hollarda rad etishi mumkin. Qonunga muvofiq, kredit byurosi kredit axboroti almashinuvi to'g'risida shartnomalar tuzishga, shuningdek qonun hujjatlariga muvofiq boshqa bitimlar tuzishga, kredit axborotini yetkazib beruvchilardan holis, ishonchli va yangilangan kredit axboroti taqdim etishini talab qilishga, kredit axborotidan foydalanuvchilarga kredit axboroti subyektlarining kredit qobiliyatini, moliyaviy

holatini, to'lov qobiliyatini va to'lov intizomini baholashda ko'maklashish maqsadida maslahat xizmatlari hamda boshqa xizmatlar ko'rsatishga, kredit axborotini yetkazib beruvchilarga kredit axborotini taqdim etishda ko'maklashishga, kredit axboroti subyektlari reyting bahosini hisoblash uslubini ishlab chiqish va undan foydalanishga, boshqa kredit byuolaridan kredit axborotini so'rab olishga haqli.

Shu bilan birga kredit byurosi kredit axborotining elektron shakldagi ma'lumotlar bazasini yuritishi va uni muntazam ravishda yangilab borishi, kredit axboroti kelib tushgan kundan keyingi ish kunidan kechiktirmay uni kredit tarixining tarkibiga kiritishi, kredit axborotining holisligi va ishonchliligini ta'minlashi, axborotni himoya qilish xizmatini tashkil etishi, kredit axboroti almashinuvini faqat ushbu Qonunda ko'rsatilgan maqsadlarga muvofiq amalga oshirishi, kredit axboroti subyektlariga, kredit axborotini yetkazib beruvchilarga va kredit axborotidan foydalanuvchilarga kredit axborotidagi noto'g'ri yoki buzib ko'rsatilgan ma'lumotlarni aniqlash hamda tuzatishda ko'maklashishi, kredit axboroti subyekting reyting bahosini hisoblash uslubini va kredit axboroti subyektini reyting baholashga ta'sir qilgan omillarni kredit axboroti subyekting yoki kredit axborotidan foydalanuvchining talabiga ko'ra tushuntirib berishi, o'z faoliyati to'g'risidagi hisobotni va boshqa ma'lumotlarni belgilangan muddatlarda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga taqdim etishi, kredit axborotining besh yil mobaynida saklanishini ta'minlashi shart. Kredit byurosining zimmasida qonun hujjatlari va kredit axboroti almashinuvi to'g'risidagi shartnomaga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

Kredit tashkiloti bo'lgan kredit axborotini yetkazib beruvchilar o'zidagi mavjud kredit axborotini Kredit axborotining davlat reestriga va kredit byuolariga taqdim etishi shart.

Kredit axboroti, qoida tariqasida, elektron shaklda taqdim etiladi. Kredit axborotining qog'ozda taqdim etilishi kredit axboroti almashinuvi to'g'risidagi shartnomada belgilanadi. Kredit axborotini yetkazib beruvchilar kredit axboroti

subyekti to'g'risidagi ma'lumotni kredit byurolariga ularning rozilgisiz taqdim etadi. Kredit byurolaridan ma'lumot kredit axboroti subyekting roziligi bilan beriladi. Kredit axborotini belgilangan tartibda kredit byurolariga taqdim etish tijorat bank sirining yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirning buzilishi deb hisoblanmaydi.

Kredit byurosiga quyidagi tashkilot va idoralar:

- yuridik shaxslarni, yakka tartibdagi tadbirkorlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organlar yuridik shaxslarning davlat reestriga va yakka tartibdagi tadbirkorlarning davlat reestriga kiritilgan ma'lumotlar hajmida;

- ko'chmas mulk obektiga bo'lgan huquqlarni va unga doir bitimlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organlar Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarning davlat reestriga va ko'chmas mulk haqidagi boshqa ochik foydalaniladigan ma'lumotlar bazalariga kiritilgan ma'lumotlar hajmida;

- davlat soliq idoralari - soliq to'lovchilarni hisobga olish ma'lumotlari, shuningdek ularning moliyaviy hisoboti to'g'risida;

- ichki ishlar organlari - berilgan pasportlar to'g'risida, shu jumladan yo'qolgan yoki amal qilish muddati tugagan pasportlar o'rniga berilgan pasportlar, shuningdek avtomototransport vositalarining ro'yxatdan o'tkazilganligi haqida hamda ularning mulkdorlari (egarlari) to'g'risida;

- davlat notarial idoralari - bitim predmeti bo'lgan obektni boshqa shaxsga o'tkazishni ta'kidlash yoki xatlov mavjud emasligi to'g'risida;

- litsenziya va (yoki) boshqa ruxsat etuvchi hujjatlarni beruvchi organlar - ushbu hujjatlar berilganligi to'g'risida, litsenziyaning amal qilishi to'xtatib turilganligi yoki tugatilganligi haqida, shuningdek ularning bekor qilinganligi va qayta rasmiylashtirilganligi to'g'risida taqdim etadi.

Kredit byurosi kredit hisobotini kredit axborotidan foydalanuvchiga faqat kredit axboroti subyekting roziligi bilan taqdim etadi.

Kredit byurolari, kredit axborotini yetkazib beruvchilar va kredit axborotidan foydalanuvchilar kredit axborotining saqlanishini hamda ruxsat

etilmagan xolda unga kirishdan, uni yo'q qilib yuborishdan, o'zgartirishdan, undan foydalanishdan yoki uni oshkor etishdan himoya qilinishini ta'minlashi kerak.

Kredit byurolari, kredit axborotini yetkazib beruvchilar, kredit axborotidan foydalanuvchilar, ularning rahbarlari va boshqa xodimlari kredit axboroti almashinuvi jarayonida o'zlari olgan yoki o'zlariga ma'lum bo'lib kolgan ma'lumotlarni oshkor etishi taqiqlanadi.

Kredit axborotini tashkil etuvchi ma'lumotlar xizmat vazifasini bajarishi munosabati bilan o'ziga ishonib topshirilgan yoki ma'lum bo'lib qolgan yohud ushbu Qonunda belgilangan tartibda taqdim etilgan shaxslar bunday ma'lumotlarni mehnat shartnomasi (kontrakt) tugatilganidan keyin xam oshkor qilishga haqli emas.

Qabul qilingan Qonun kredit bitimining holati, berilgan ta'minot bo'yicha (garov, kafolat, kafillik, kreditni to'lamaslik xavfini sug'urtalash va ta'minotning boshqa turlari bo'yicha) majburiyatlarning bajarilishi haqidagi ma'lumotlar, shuningdek kredit axboroti subyekting kredit qobiliyatini, moliyaviy holatini, to'lov qobiliyatini, to'lov intizomini va o'zga sifatlarni aniklashga ko'maklashuvchi amaliy tizimni yaratishga yo'naltirilgan.

Qonundan ko'zda tutilgan asosiy maqsad - kredit axboroti almashinuvi sohasida munosabatlarni muvofiqlashtirishdan iborat. Hujjatda kredit axboroti almashinuvi bilan bog'lik asosiy tushunchalar, kredit byurosiga litsenziya berish va davlat ro'yxatiga olish tartibi, kredit byurosini qayta tashkil etish va tugatish, Markaziy bank vakolatlari, kredit byuolarining huquq va majburiyatlari, kredit axborotini yetkazib beruvchilar va undan foydalanuvchilar, kredit axboroti subyektlari, kredit axborotini muxofaza qilish, axborotlar almashinuvi va ularni taqdim etishdagi cheklovlar, kredit axboroti almashinuvi to'g'risidagi qonunchilikni buzganligi uchun javobgarlik va nizolarni yechishning mexanizmlari aniq ko'rsatilgan.

Kredit axboroti almashinuvi, Qonunda belgilanganidek, kredit byurosi, subyekti, kredit axborotini yetkazib beruvchi va undan foydalanuvchining kredit

tarixini shakllantirish hamda kredit hisobotini taqdim etish maqsadida kredit axborotini yig'ish, unga ishlov berish, uni taxlil qilish, saklash, taqdim etish, undan foydalanish va kredit axborotini himoya qilish borasidagi hamkorligidir. Qonunga ko'ra, kredit bitimi bo'yicha karz oluvchi (qarzdor), lizing oluvchi, kafil, kafillik beruvchi, garovga qo'yuvchi yuridik va jismoniy shaxslar kredit axboroti subyektlari hisoblanadi.

Kredit byurosi kredit axboroti subyektiga nisbatan shakllantirgan kredit axboroti majmui kredit tarixi deyiladi. U o'z ichiga kredit axboroti subyektini identifikasiyalash imkonini beradigan, kredit axboroti subyektining kredit bitimlari, ularning ijro etilishi holati, kredit axboroti subyektining fuqarolik-huquqiy shartnoma bo'yicha pul summasini to'lash majburiyatlari, kredit tarixini shakllantirgan kredit byurosi haqidagi ma'lumotlar kredit tarixi deyiladi.

Kredit byurosi kredit axborotini yetkazib beruvchilardan holis, ishonchli va yangilangan kredit axboroti taqdim etishini talab qilishga haqlidir. Byuro, shuningdek, kredit axborotidan foydalanuvchilarga kredit axboroti subyektlarining kredit qobiliyatini, moliyaviy holatini, to'lovga qobiliyatini va to'lov intizomini baholashda ko'maklashish maqsadida maslahat xizmatlari hamda boshqa xizmatlar ko'rsatishi mumkin.

Kredit byurosi kredit axboroti tushgan kundan keyingi ish kunidan kechiktirmay uni kredit tarixining tarkibiga kiritadi, kredit axborotining xolisligi va ishonchliligini ta'minlaydi.

Kredit axboroti kredit byurosida besh yil davomida saklanadi.

Qonunda ko'rsatilganidek, kredit byurolari, kredit axborotini yetkazib beruvchilar va kredit axborotidan foydalanuvchilar kredit axborotining saklanishi hamda ruxsat etilmagan xolda unga kirishdan, uni yo'q qilib yuborishdan, o'zgartirishdan, noqonuniy foydalanishdan yoki uni oshkor etishdan himoya qilishlari kerak.

Qonun, shubhasiz, kreditlash infrastrukturasini, kredit tashkilotlari faoliyatida

tavakkalchiliklarni kamaytirish, kreditlash samaradorligini oshirish, ularning faoliyatini optimallashtirishda muxim vazifani bajaradi.

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

- kredit bitimi- kredit, qarz, lizing, faktoring, sug'urta shartnomasi hamda pul mablag'lariva boshqa mol - mulkni qarzga berishni, shu jumladan tovarlar, ishlar va xizmatlar uchun to'lovnibo'nak (oldindan to'lash), kechiktirib yoki bo'libbo'lib to'lash tarzida berishni nazarda tutuvchiboshqa shartnomalar;

- kredit axboroti almashinuvi - kredit byurosi, kredit axboroti subyekti, kredit axborotiniyetkazib beruvchi va kredit axborotidan foydalanuvchining kredit tarixini shakllantirish hamdakredit hisobotini taqdim etish maqsadida kredit axborotini yig'ish, unga ishlov berish, unitahlil qilish, saqlash, taqdim etish, undan foydalanish va kredit axborotini himoya qilishborasidagi hamkorligi;

- kredit axboroti subyekti - kredit bitimi bo'yicha tegishincha qarz oluvchi (qarzdor), lizingoluvchi, kafil, kafolat beruvchi, garovga qo'yuvchi, shuningdek sug'urtalovchi sifatida ishtiroketuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs;

- kredit axborotini yetkazib beruvchi - kredit axborotini kredit byurosiga taidim etuvchi yuridikyoki jismoniy shaxs;

- kredit axborotidan foydalanuvchi - kredit bitimi bo'yicha tegishincha kreditor, lizingberuvchi, garovga oluvchi, shuningdek sug'urta qildiruvchi sifatida ishtirok etuvchi yuridik yokijismoniy shaxs.

Kredit axboroti - kredit bitimining holati, berilgan ta'minot bo'yicha (garov, kafolat,kafillik, kreditni to'lamaslik xavfini sug'urtalash va ta'minotning boshqa turlari bo'yicha)majburiyatlarning bajarilishi haqidagi ma'lumotlar, shuningdek kredit axboroti subyektiningkredit qobiliyatini, moliyaviy holatini, to'lov qobiliyatini, to'lov intizomini va o'zgasifatlarini aniqlashga ko'maklashuvchi boshqa axborot, shu jumladan:

- kredit axboroti subyektini va kredit axborotini yetkazib beruvchini identifikatsiyalashimkonini beradigan;

- kredit axboroti subyektining fuqarolik - huquqiy shartnoma bo'yicha pul summasini to'lashmajburiyatlari to'g'risidagi;

- kredit axboroti subyektiga aloqador shaxslar to'g'risidagi;

- kredit bitimi bilan bog'liq mol-mulk to'g'risidagi ma'lumotlar.⁴

Kredit tarixi kredit byurosi tomonidan kredit axboroti subyektiga nisbatan shakllantirilgankredit axboroti majmui.Kredit tarixi o'z ichiga:kredit axboroti subyektini identifikatsiyalash imkonini beradigan;kredit axboroti subyektining kredit bitimlari to'g'risidagi, shuningdek ularning ijro etilishiholati haqidagi;kredit axboroti subyektining fuqarolik-huquqiy shartnoma bo'yicha pul summasini to'lashmajburiyatlari to'g'risidagi;kredit tarixini shakllantirish sanasi to'g'risidagi, shuningdek kredit tarixini shakllantirgankredit byurosi haqidagi ma'lumotlarni olishi kerak.Kredit tarixiga kredit axboroti almashinuvi to'g'risidagi shartnomaga muvofiq boshqama'lumotlar ham kiritilishi mumkin.

Kredit axboroti subyektining bajarilish sanasidan e'tiboran besh yildan ko'p vaqt o'tgan pulsummasini to'lash majburiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlar kredit tarixiga kiritilmaydi.

Kredit hisoboti kredit tarixi tarkibiga kiruvchi axborotni to'liq yoki qisman o'z ichiga olganhujjat.Kredit hisobotining shakli, mazmuni va uni taqdim etish tartibi kredit axboroti almashinuvito'g'risidagi shartnomada belgilanadi.Kredit hisoboti kredit byurosi tomonidan quyidagilarga taqdim etiladi:

- kredit axborotidan foydalanuvchiga kredit axboroti subyektining roziligi bilan;

- kredit axboroti subyektiga mazkur kredit axboroti subyektining barcha kredit axborotiyetkazib beruvchilari va kredit axborotidan foydalanuvchilarining identifikatsiya ma'lumotlariko'rsatilgan so'rovi bo'yicha.Kredit hisoboti kredit byurosi uni taqdim etish to'g'risida so'rov olgan kundan e'tiboran ikkiish kunidan ko'p bo'lmagan muddatda taqdim etiladi.Kredit hisoboti faqat bitta kredit axboroti subyekti xususida taqdim etiladi.

⁴“Kredit axboroti almashinuvi to'g'risida”gi qonun.2011-yil 11-noyabr.

Kredit byurosi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tashkil etilgan va kredit axborotialmashinuvini amalga oshirish bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi yuridik shaxs. Kredit byurosining faoliyati litsenziya asosida amalga oshiriladi. Kredit byurosi o'zining firma nomi davlat tilida to'liq yozilgan hamda joylashgan yeriko'rsatilgan yumaloq muhrga ega bo'lishi lozim. Muhorda bir vaqtning o'zida firmaning nomi boshqaistalgan tilda ham ko'rsatilishi mumkin. Kredit byurosining firma nomida «kredit byurosi» degan so'z birikmasi yozilgan bo'lishi kerak.

Kredit byurosi o'zining firma nomi yozilgan shtamlarga, blankalarga va o'z emblemasiga egabo'lishga haqli.

Kredit byurosini davlat ro'yxatidan o'tkazish va kredit byurosi faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya (bundan buyon matnda litsenziya deb yuritiladi) berish O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan amalga oshiriladi.

Kredit byurosini davlat ro'yxatidan o'tkazish va litsenziya berish uchun O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga joylashgan yeri (pochta manzili) ko'rsatilgan holda ariza berilib, unga quyidagilar ilova qilinadi:

- muassislar umumiy yig'ilishining kredit byurosini tashkil etish to'g'risidagi bayonnomasi;
- kredit byurosining ta'sis hujjatlari;
- kredit byurosining rahbari va muassislari haqidagi ma'lumotlar;
- kredit axborotini ruxsat etilmagan holda, unga kirishdan, yo'q qilib yuborishdan, o'zgartirishdan, undan foydalanishdan yoki uni oshkor etishdan himoya qilishni ta'minlovchi dasturiy-texnikaviy kompleksning parametrlari va joylashuvi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlovchi hujjatlar;
- kredit byurosining ustav fondi shakllantirilganligini tasdiqlovchi bank hujjati;
- davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun davlat boji to'langanligi to'g'risidagi bank to'lov hujjati.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki davlat ro'yxatidan o'tkazish va litsenziya berish uchun hujjatlar taqdim etilgan kundan e'tiboran o'ttiz kun ichida kredit byurosini davlatro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiradi va litsenziya beradi. Kredit byurosining ta'sis hujjatlariga kiritilgan o'zgartishlar va qo'shimchalar qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida ro'yxatdan o'tkazilishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki kredit byurosini davlat ro'yxatidan o'tkazishni valitsenziya berishni quyidagi hollarda rad etishi mumkin:

- davlat ro'yxatidan o'tkazish va litsenziya berish uchun zarur bo'lgan hujjatlar taqdim etilmaganda;

- ta'sis hujjatlari va taqdim etilgan boshqa hujjatlar qonun hujjatlariga muvofiq bo'lmaganda;

- davlat ro'yxatidan o'tkazish va litsenziya berish uchun taqdim etilgan hujjatlarda noto'g'ri yoki buzib ko'rsatilgan ma'lumotlar mavjud bo'lganda;

- kredit axborotini ruxsat etilmagan holda unga kirishdan, yo'q qilib yuborishdan, o'zgartirishdan, undan foydalanishdan, uni oshkor etishdan himoya qilishni ta'minlovchi dasturiy texnikaviy kompleks mavjud bo'lmaganda yoki dasturiy texnikaviy kompleks belgilangan talablarga muvofiq bo'lmaganda;

- kredit byurosining rahbari belgilangan malaka talablariga muvofiq bo'lmaganda.

Kredit byurosini davlat ro'yxatidan o'tkazishni va litsenziya berishni rad etish to'g'risidagi qaror rad etish sabablari hamda ariza beruvchi ko'rsatilgan sabablarni bartaraf qilib, takroran ko'rib chiqish uchun ariza berishi mumkin bo'lgan muddat ko'rsatilgan holda ariza beruvchiga yozma shaklda yuboriladi. Bunda kredit byurosini davlat ro'yxatidan o'tkazishni va litsenziya berishni rad etish to'g'risidagi qarorda ko'rsatilgan muddat kamchiliklarni bartaraf etish uchun zarur bo'lgan vaqtga mutanosib bo'lishi kerak. Kredit byurosini davlat ro'yxatidan o'tkazish va litsenziya berish uchun taqdim etilgan hujjatlarni takroran ko'rib chiqish ariza barcha zarur hujjatlar bilan birga olingan kundan e'tiboran o'n kundan ko'p

bo'lmagan muddatda amalga oshiriladi. Kredit byurosini davlat ro'yxatidan o'tkazishni va litsenziya berishni rad etish to'g'risidagi qarorda ko'rsatilgan muddato'tganidan keyin berilgan ariza yangitdan berilgan hisoblanadi. Kredit byurosini davlat ro'yxatidan o'tkazishni va litsenziya berishni rad etish to'g'risidagi qarorustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

Litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish, tugatish, shuningdek uni bekor qilish yoki qaytarasmiylashtirish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Litsenziyaning bekor qilinishi kredit byurosining kredit axboroti almashinuvi bilan bog'liq ilgari amalga oshirilgan harakatlarini haqiqiy emas deb topishga sabab bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kredit byurolari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish borasidagi vakolatlari O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki:

- kredit axboroti almashinuvi sohasida o'z vakolatlari doirasida normativhukuqiy hujjatlar qabul qiladi;
- qonun hujjatlarida belgilangan tartibda kredit byurosini davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiradi va litsenziya beradi, uning amal qilishini to'xtatib turadi yoki tugatadi, shuningdek litsenziyani bekor qiladi yoki qayta rasmiylashtiradi;
- kredit byurolarining davlat reestrini va Kredit axborotining davlat reestrini yuritadi;
- kredit byurolari uchun ichki audit o'tkazishga, yillik hisobotlar tuzishga, shuningdek kredit axboroti himoya qilinishini ta'minlovchi dasturiy texnikaviy kompleksning parametrlari va joylashuviga doir majburiy talablarni belgilaydi;
- kredit byurolariga ularning faoliyatida aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf qilish haqida ijro etilishy majburiy bo'lgan ko'rsatmalar beradi, ko'rsatmalar ijro etilmagan takdirda javobgarlik choralari ko'radi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki qonun hujjatlariga muvofiq kredit byuolarining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish bo'yicha boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Kredit byurosi:

- kredit axboroti almashinuvi to'g'risida shartnomalar tuzishga, shuningdek qonun hujjatlariga muvofiq boshqa bitimlar tuzishga;
- kredit axborotini yetkazib beruvchilardan xolis, ishonchli va yangilangan kredit axboroti taqdim etishini talab qilishga;
- kredit axborotidan foydalanuvchilarga kredit axboroti subyektlarining kredit qobiliyatini, moliyaviy holatini, to'lov qobiliyatini va to'lov intizomini baholashda ko'maklashish maqsadidamaslahat xizmatlari hamda boshqa xizmatlar ko'rsatishga;
- kredit axborotini yetkazib beruvchilarga kredit axborotini taqdim etishda ko'maklashishga;
- kredit axboroti subyektlari reyting bahosini hisoblash uslubini ishlab chiqish va undan foydalanishga;
- boshqa kredit byuolaridan kredit axborotini so'rab olishga haqli.

Kredit byurosi qonun hujjatlari va kredit axboroti almashinuvi to'g'risidagi shartnomaga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Kredit byurosi:

- kredit axborotining elektron shakldagi ma'lumotlar bazasini yuritishi va uni muntazam ravishda yangilab borishi;
- kredit axboroti kelib tushgan kundan keyingi ish kunidan kechiktirmay uni kredit tarixining tarkibiga kiritishi;
- kredit axboroti subyektning reyting bahosini hisoblash uslubini va kredit axboroti subyektini reyting baholashga ta'sir qilgan omillarni kredit axboroti subyektning yoki kredit axborotidan foydalanuvchining talabiga ko'ra tushuntirib berishi;
- o'z faoliyati to'g'risidagi hisobotni va boshqa ma'lumotlarni belgilangan muddatlarda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga taqdim etishi;

- kredit axborotining besh yil mobaynida saqlanishini ta'minlashi shart.

Kredit byurosining zimmasida qonun hujjatlari va kredit axboroti almashinuvi to'g'risidagi shartnomaga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

Kredit byurosining o'z faoliyati natijalari to'g'risidagi yillik hisoboti hisobot yilidan keyingi yilning 1-mayidan kechiktirmasdan ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinishi kerak.

Yillik hisobot mazmuniga doir talablar O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilanadi.

Kredit axboroti kredit axborotini yetkazib beruvchilar tomonidan kredit axboroti almashinuvi to'g'risidagi shartnoma asosida kredit byuolariga taqdim etiladi. Kredit tashkiloti bo'lgan kredit axborotini yetkazib beruvchilar o'zidagi mavjud kredit axborotini Kredit axborotining davlat reestriga va kredit byuolariga taqdim etishi shart. Kredit axboroti, qoida tariqasida, elektron shaklda taqdim etiladi. Kredit axborotining qog'ozda taqdim etilishi kredit axboroti almashinuvi to'g'risidagi shartnomada belgilanadi. Kredit axborotini yetkazib beruvchilar kredit axborotini kredit byuolariga kredit axboroti subyekting roziligisiz taqdim etadi.

Kredit byuolari kredit axboroti subyekting roziligisiz o'zaro kredit axborotini almashishi mumkin. Kredit axborotini belgilangan tartibda kredit byuolariga taqdim etish tijorat, bank sirining yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirning buzilishi deb hisoblanmaydi.

Kredit byurosi kredit axborotini kredit axboroti almashinuvi to'g'risidagi shartnoma asosida kredit axborotini yetkazib beruvchilardan oladi va kredit hisobotini kredit axborotidan foydalanuvchilarga taqdim etadi. Kredit axboroti almashinuvi to'g'risidagi shartnoma kredit byurosi tomonidan kredit axboroti subyekti yoki kredit axborotini yetkazib beruvchi yoxud kredit axborotidan foydalanuvchi bilan tuziladi. Kredit axboroti almashinuvi to'g'risidagi shartnomada quyidagilar ko'rsatilishi kerak:


- kredit axborotining turi, shakli, uni taqdim etish va yangilash tartibi;

- taraflarning kredit axborotini ruxsat etilmagan holda unga kirishdan, yo'q qilib yuborishdan, o'zgartirishdan, undan foydalanishdan yoki uni oshkor etishdan himoya qilishni ta'minlashga doir huquq va majburiyatlari;

- kredit axborotidagi noto'g'ri yoki buzib ko'rsatilgan ma'lumotlarni aniqlash va tuzatishda taraflarning hamkorligi tartibi. Kredit axboroti almashinuvi to'g'risidagi shartnomada qonun hujjatlariga muvofiq boshqa shartlar ham bo'lishi mumkin.

Kredit byurosi kredit hisobotini kredit axborotidan foydalanuvchiga faqat kredit axboroti subyekting roziligi bilan taqdim etadi. Kredit axboroti subyekting o'zi haqidagi kredit hisobotini taqdim etishga roziligi qonun hujjatlariga muvofiq yozma shaklda yoki elektron hujjat tarzida kredit axborotining sanasi, kredit axborotidan foydalanuvchi va kredit hisobotini taqdim etish maqsadi ko'rsatilgan holda rasmiylashtiriladi. Kredit hisoboti faqat kredit axboroti subyekting roziligida ko'rsatilgan kredit axborotidan foydalanuvchiga taqdim etiladi. Kredit axboroti subyekting o'zi haqidagi kredit hisobotini taqdim etishga roziligi bir oy mobaynida haqiqiydir. Agar kredit axboroti subyekti va kredit axborotidan foydalanuvchi o'rtasida kredit bitimi tuzilsa, unda mazkur rozilik tegishli kredit bitimi amal qiladigan butun muddat mobaynida haqiqiydir. Kredit axboroti subyekting o'zi haqidagi kredit hisobotini taqdim etishga roziligi kredit axborotidan foydalanuvchida besh yil mobaynida saqlanishi kerak. Agar kredit axboroti subyekti va kredit axborotidan foydalanuvchi o'rtasida kredit bitimi tuzilsa, unda kredit axboroti subyekting o'zi haqidagi kredit hisobotini taqdim etishga roziligi kredit axborotidan foydalanuvchida kredit bitimi ijro etilgan sanadan keyin besh yil mobaynida saklanishi lozim. Kredit axborotidan foydalanuvchi kredit byurosining talabiga ko'ra mazkur rozilikni tanishish uchun uch ish kuni ichida taqdim etishi shart.

**Kredit axborotini yetkazib
beruvchi:**



1-rasm. Kredit axborotini yetkazib beruvchining huquqi⁵

Kredit axborotini yetkazib beruvchi qonun hujjatlari va kredit axboroti almashinuvi to'g'risidagi shartnomaga muvofiq boshqa hukuqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Kredit axborotini yetkazib beruvchi:

- kredit byurosiga haqiqiy ma'lumotlarga asoslangan xolis, ishonchli va yangilangan kredit axborotini taqdim etishi;
- kredit byurosiga kredit axborotidagi o'zgarishlar va yangilashlar haqida o'z vaktida xabar qilishi;
- kredit byurosiga berilgan kredit axborotiga belgilangan tartibda, kredit axboroti subyektining talabiga ko'ra o'zgartirishlar kiritishi;
- kredit axboroti almashinuvi to'g'risidagi shartnomaga muvofiq kredit byurosiga ma'lumotlar uzatish tizimining uzluksiz ishlashini ta'minlashi shart.

Kredit axborotini yetkazib beruvchining zimmasida qonun hujjatlari va kredit axboroti almashinuvi to'g'risidagi shartnomaga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

Kredit axborotidan foydalanuvchi:

- bir nechta kredit byurosidan kredit hisobotlarini olishga; taqdim etilgan kredit hisobotining xolisligi va ishonchliligi yuzasidan kredit byurosiga o'z fikrmuloxazalarini bildirishga;

⁵Muallif tomonidan mustaqil tayyorlandi

- kredit byurolaridan kredit axboroti subyektining reyting bahosini hisoblash uslubini hamda kredit axboroti subyekti reyting bahosiga ta'sir qilgan omillarni tushuntirib berishni talab qilishga haqli.

Kredit axborotidan foydalanuvchi qonun hujjatlari va kredit axboroti almashinuvi to'g'risidagi shartnomaga muvofiq boshqa xuquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Kredit axborotidan foydalanuvchi:

- kredit axboroti subyekti to'g'risidagi kredit hisobotini kredit byurosidan olish uchun kredit axboroti subyektidan rozilik so'rashi;

- kredit hisobotining maxfiyligi va but saqlanishiga rioya etishi hamda unda mavjud bo'lgan kredit axborotini uchinchi shaxslarga oshkor etmasligi;

- kredit hisobotidanfaqat ushbu Qonun 24-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan maqsadlar uchun foydalanishi;

- kredit axboroti subyekti xususida olingan kredit hisobotining ko'chirma nusxasini uning so'roviga ko'ra taqdim etishi;

- kredit axboroti subyektining o'zi haqidagi kredit hisobotini berishga ilgari olingan roziligini tanishib chiqish uchun kredit byurosining talabiga ko'ra unga uch ish kuni ichida taqdim etishi shart.

Kredit axborotidan foydalanuvchining zimmasida qonun hujjatlari va kredit axboroti almashinuvi to'g'risidagi shartnomaga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

Kredit axboroti subyekti:

- kredit byurosidan o'zi haqidagi kredit hisobotini olish, shu jumladan bir yilda bir marta tekinga olish;

- o'zi haqidagi kredit hisobotining taqdim etilishi maqsadi to'g'risida va kredit hisoboti taqdim etilgan kredit axborotidan foydalanuvchilar haqida kredit byurosidan axborot olish;

- kredit axborotidan foydalanuvchidan o'zi haqidagi kredit hisobotining ko'chirma nusxasini olish;

- o'zi haqidagi kredit axborotida xolis, ishonchli va yangilangan ma'lumotlar aks ettirilishi maqsadida unga o'zgartirishlar kiritishni kredit axborotini yetkazib beruvchilardan talab qilish;

- kredit axborotini kredit byuolariga o'z vaqtida taqdim etishni kredit axborotini yetkazib beruvchilardan talab qilish;

- o'zi haqidagi kredit hisobotini taqdim etishga rozilik berishni rad etish;

- kredit byurosiga qilgan murojaati o'z vaqtida ko'rib chiqilishini talab qilish;

- kredit byurosida mavjud bo'lgan o'zi haqidagi kredit axborotidan, qanday maqsadlarda bo'lishidan qat'i nazar, foydalanish hukuqiga ega.

Kredit axboroti subyekti qonun hujjatlari va kredit axboroti almashinuvi to'g'risidagi shartnomaga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Kredit axborotini tashkil etuvchi ma'lumotlar xizmat vazifasini bajarishi munosabati bilan o'ziga ishonib topshirilgan yoki ma'lum bo'lib qolgan yoxud ushbu Qonunda belgilangan tartibda taqdim etilgan shaxslar bunday ma'lumotlarni mehnat shartnomasi (kontrakt) tugatilganidan keyin ham oshkor qilishga haqli emas.

1-bob bo'yicha xulosa

Xulosa qilib aytganda, respublikamiz bank tizimida axborot almashinuvi doimiy, uzluksiz jarayon sifatida davom etmoqda va uni muvaffaqiyatli tarzda tarzda amalga oshirish, banklar tomonidan berilayotgan kreditlarning o'z vaqtida qaytarilishi axborot almashinuvini taqozo etadi.

Misol uchun, jahon bank amaliyotida yirik miqdorda muddati o'tgan krediti bo'lgan shaxs, ikkinchi bankka kredit so'rab hujjat taqdim qilgan. Hujjat taqdim qilish jarayonida korxonada mavjud kreditni balansda ko'rsatmagan va sotib olinayotgan moddiy boyliklarni garovga qo'yib kredit olgan. U o'z mulkini boshqa shaxsning majburiyati ta'minoti uchun garovga qo'ygan, uzi esa boshqa kreditlar uchun kafil bo'lgan. Qarzdor korxona kredit olingan loyihaga aloqasi bo'lmagan

xarajatlar amalga oshirib, sho'ba korxonalar tashkil etib, ularning ustav kapitaliga o'z mulkini qo'yganligi (ta'sis shartnomasida esa korxona va shoba korxona bir-birining majburiyati uchun javobgar emasliklari ko'rsatilgan) holatlari ham uchrab turadi.

Oqibatda korxonaning kreditlari, bergan kafilliklari va boshqa shaxsning majburiyati ta'minoti yuzasidan garov bo'yicha majburiyatlari uning aktivlaridan bir necha barobar oshib ketadi. Qarzdorning bu hatti-harakati uning kreditni qaytarish qobiliyatiga salbiy ta'sir qiladi va kredit qaytmasligi xavfini oshiradi. Demak, bu vaziyatlardan shuni xulosa qilish mumkinki, bu kabi muammolarni oldini olish, kredit qaytmaslik xatarini kamaytirish uchun qarz oluvchining moliyaviy holati va taqdim etilgan loyihalarni tahlil qilishning o'zi yetarli emas. Balki, u korxona to'g'risida yetarli axborotga ega bo'lish zarur.

2-BOB. O'ZBEKISTONDA TIJORAT BANKLARI KREDIT MA'LUMOTLARI ALMASHINUV TIZIMI, FAOLIYATI VA UNING TAHLILI

2.1.Kredit axborot milliy instituti faoliyati

Jahon amaliyotidan ma'lumki, qarzdorlar to'g'risida to'liq axborot almashinuvi banklarning muvaffaqiyatli kredit siyosati olib borishining zaruriy shartlaridan hisoblanadi. Muddatida qaytarilmagan kreditlarning o'sishiga kredit berish vaqtida kredit tashkilotida qarzdorlar to'g'risidagi to'liq axborotning mavjud emasligi ham asosiy sabablardan biridir. Kredit portfelining hajmi va qarzdorlar soni oshgani sayin banklar uchun bo'lajak va mavjud qarzdorlar haqida

to'laqonli axborotga ega bo'lish qiyinlashadi. Bunday ma'lumotlarni olish va tahlil qilish uchun ko'p vaqt sarflanadi, mijoz esa qisqa muddatda mablag' olishni istaydi. Kredit axborot almashish tizimi jahon amaliyotida mana shu zarurat tufayli yuzaga kelgan va hozirda bu tizim ishlamoqda.

Ma'lumki, mamlakatimizda kredit axboroti almashinuvi tizimining shakllanishiga Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 23 apreldagi «Qarz oluvchilarning kredit tarixi to'g'risidagi axborotni hisobga olish tizimini shakllantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori sharoit yaratdi. Mazkur qaror asosida kredit axborotini hisobga olishning ikki pog'onali tizimi - Markaziy bankda Kredit axboroti milliy instituti va O'zbekiston banklari assotsiatsiyasida Banklararo kredit byurosi tashkil etildi.

Kredit axboroti almashinuvi tizimini tashkil qilishdan ko'zlangan maqsad banklarni kredit oluvchilar to'g'risidagi axborot bilan ta'minlash, bank tizimida kredit riskini kamaytirish va kredit intizomini mustahkamlashga erishish, shuningdek, tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy obro'sini oshirishga sharoit yaratishdir.

Markaziy bankda tijorat banklari va ularning qarzidorlarining kredit operatsiyalari, majburiyatlari, ta'minot turlari to'g'risidagi axborotlar bazasi va kredit axborotining yagona reestri shakllantirildi.

Kredit axboroti almashinuvi natijasida korxonalarning kredit tarixi vujudga keladi. Kredit tarixi, ilgari olgan kredit va bergan kafilligi bo'yicha majburiyatini qanday bajarganligi to'g'risidagi ma'lumotlardan tashkil topadi. Korxona ilgari kreditni muammosiz qaytargan bo'lsa ijobiy, bordiyu, muammoli qaytargan bo'lsa salbiy kredit tarixiga ega bo'ladi. Ijobiy kredit axboroti bo'lgan korxonaga kreditni rasmiylashtirish jarayoni tezlashishi, kredit ta'minoti summasi kamayishi, boshqalarga nisbatan imtiyozli foiz stavkasida kredit berilishi mumkin, Kredit reytingiga ega korxona zarur vaqtda kredit olishi, kreditorlar oldidagi qarzini o'z vaqtida to'lashi, imtiyozli foizlar hisobiga foizli xarajatlarini ancha iqtisod qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Salbiy kredit axboroti bo'lgan yoki umuman bo'lmagan korxonaga bank kredit bermasligi yoki buyurtmani ko'rib chiqish jarayoni cho'zilishi, kredit summasiga nisbatan ancha katta ta'minot talab qilishi, yuqori foiz stavkasi belgilashi mumkin. Oqibatda korxonaning zarur vaqtda kredit olishi qiyinlashadi, foizli xarajatlari oshadi, moliyaviy holati yomonlashadi.

Shuningdek, qarzdor va uning kredit operatsiyalari to'g'risidagi axborotning sir saqlanishiga katta e'tibor qaratildi va bu jarayon Markaziy bankning shifrlangan elektron kanallari orqali amalga oshiriladi.

Kredit axboroti milliy instituti (KAMI) kredit axboroti davlat reestriga misol bo'la oladi. Tijorat banklariga qarzdorlar to'g'risidagi axborot ularning elektron so'rovlariga javoban bepul taqdim etilmoqda.

KAMI tashkil etilgandan hozirgi kunga qadar kredit axboroti almashinuvi tobora takomillashib kelmoqda, taqdim etilayotgan ma'lumotlarning sifati ortib kredit axboroti foydalanuvchilariga (kreditorlarga) kredit xatarining oldini olish bo'yicha keng imkoniyatlar berilmoqda. Masalan, 2004-yilda KAMI tashkil etilganda kredit axboroti almashinuvi bo'yicha printsiplar, uslub va mexanizmlar haqida ma'lumotlar yo'q yoki tanqis edi va bundan kelib chiqib dasturiy-texnika vositalarini tashkil qilish masalasi turardi. Ammo oradan bir yil o'tar-o'tmas xalqaro tamoyillardan kelib chiqib Markaziy bankning o'z kuchi bilan kredit axboroti almashinuvi tizimi va qarzdorlarning kredit axboroti yagona reestri tashkil etildi, dasturiy ta'minot, tegishli me'yoriy hujjatlar, dasturiy talablar ishlab chiqildi, tegishli texnika vositalari sotib olinib 2005-yilning 18-aprelida banklardan kredit axboroti olina boshlandi.

Kredit axboroti milliy instituti faoliyatida halqaro tamoyillarning barchasiga rioya qilingan. 2006-yilda KAMI dasturiy majmuasi takomillashtirilib qabul qilinadigan ma'lumotlar doirasi kengaytirildi, ularning ishonchliligini oshirish uchun elektron mantiqiy nazorat yo'lga qo'yildi. Har bir qabul qilinayotgan kredit axboroti bir qator elektron mantiqiy nazoratdan o'tadi, masalan:

1. Rekvizitlarning o'zaro muvofiqligi. Ma'lumotlarning to'la va yaxlitligi, ariza, shartnoma va operatsiya sanalarining ketma-yetligi va shunga o'xshash (Masalan, ariza tushgan sana shartnomanikidan oldin bo'lishi, shartnoma sanasi esa operatsiyanikidan oldin bo'lishi);

2.Qabul qilinayotgan kredit axborotining qonunchilikka mosligi. Ya'ni kredit turining, maqsadining, shaxslarning, sohasining o'zaro mos va muvofiqligi (Masalan, investitsion sinditsiya krediti jismoniy shaxslarga berilmasligi yoki iste'mol krediti yuridik shaxslarga berilmasligi, faqat qishloq xo'jaligi sohasiga tegishli qarzdorlarga paxta va g'alla uchun kreditlarning ajratilishii va boshqalar).

3.Tijorat banklarining kredit qo'yilmasi balans hisobraqamlarida KAMIdagi summasi har kuni avtomatik solishtirish yo'li bilan kredit axboroti ning to'liq yuborilishi nazorat qilib boriladi. Bu esa tijorat banklariga qarxdorlartto'g'risidagi kredit axborotining to'g'riligini va to'liqligini ta'minlaydi. Xalqaro tashkilotlar va xorijiy mutaxassislarning fikricha bu tajriba faqat O'zbekistonda amalga kiritilgan.

Ushbu elektron mantiqiy nazoratlar doimiy ravishda takomillashtirilib kelinmoqda. Shu bilan bir qatorda banklardagi kredit yig'majildi va elektron ssuda kartochkalaridagi ma'lumotlar bir xil bo'lishi shartligi to'g'risida talab qo'yilgan. KAMIda ma'lumotlar elektron ssuda kartochkasidan olinadi.Kredit o'z vaqtida to'lansa ijobiy kredit axboroti, kechikishlar bilan to'lansa yoki umuman to'lanmagan bo'lsa salbiy kredit axboroti vujudga keladi.Ijobiy kredit axboroti bo'lgan shaxslarga kredit arizasini ko'rib chiqish jarayoni tezlashtirilishi, kredit ta'minoti uchun talab summasi kamaytirilishi mumkin.KAMIda qarzdor to'g'risidagi axborot kreditni o'z vaqtida qaytarilsa 5 yil, kechikishlar bilan qaytarsa 10 yil saqlanadi.Xullas, kreditni naqadar qisqa vaqtda olish, qanday moliyaviy obro'ga ega bo'lish har kimning o'zi hal qiladi.⁶

Bundan tashqari KAMI ma'lumotlari Markaziy bankning tegishli bo'linmalarida bank nazorati maqsadida foydalanilmoqda. Markaziy bank Kredit

⁶N.Xolmurodov "kredit axboroti almashinuvi kredit riskini kamaytirishdagi ahamiyati" Jurnal "BPK", 2013-yil, Toshkent.

axboroti milliy instituti orqali kredit axboroti almashinuvi tizimi tashkil etilishi natijasida:

- banklarda qarzdorlar to'g'risida axborot olish va natijada kredit riskini kamaytirish imkoni paydo bo'ldi, bunda bir shaxsning bir necha bankdan kredit olish imkoniyati keskin kamaydi;

- banklar va qarzdorlarning moliya-kredit intizomini mustahkamlashga qiziqishini oshirdi;

- bank nazorati uchun haqqoniy va tezkor ma'lumot olish yo'lga qo'yildi;

- boshqa mamlakatlardan farqli o'laroq banklarning kredit summasini balans bilan nazorat qilishning yo'lga qo'yilishi jahon kredit axboroti almashinuvi tizimida yangilik sifatida xalqaro tashkilotlar tomonidan e'tirof etildi;

- inson omilini kamaytirishga katta e'tibor berilgan, kredit axboroti almashinuvi real vaqt rejimida amalga oshadi;

- qarzdorlarda moliyaviy obro'sini himoya qilish tuyg'usi vujudga keldi.

Ta'kidlash lozimki, bunday tizim hamdo'stlik mamlakatlarining aksariyatida hali to'liq yo'lga qo'yilmagan. Nufuzli xalqaro tashkilotlar vakillari Kredit axboroti milliy institutining ish faoliyati, ishlash tartibi, dasturiy ta'minoti va kredit axboroti almashinuvi tizimiga ijobiy fikr bildirdilar.

Kredit axboroti almashinuvi tizimida axborot texnologiyalari. Kredit axborotini taqdim etish uchun uni avvalambor optimal to'planishi kerak. Kredit axboroti milliy institutida ma'lumotlarni haqqoniy, to'liq va o'zaro bog'liq bo'lishini ta'minlash maqsadida kredit tashkilotlaridan kreditlash jarayonining barcha bosqichlari to'g'risidagi ma'lumotlarni olish yo'lga qo'yildi. Ya'ni qarz oluvchining kredit tashkilotlariga bergan kredit buyurtmasi (arizasi), kredit tashkilotlarining kredit berish to'g'risidagi qarori, tuzilgan shartnoma ma'lumotlari, kredit operatsiyalari to'g'risidagi ma'lumotlar tegishli ketma-ketlikda KAMIda yuboriladi. O'z navbatida, kredit tashkilotlarining qarzdorlar to'g'risidagi so'roviga javoban, KAMIdan ma'lumot taqdim etilganda bir mijoz to'g'risida uning ilgari va

amaldagi barcha kreditlari, mijozlarning bergan hamma kafilliklari to'g'risidagi ma'lumot taqdim etiladi

KAMIdan noqonuniy axborot olinishining oldini olish maqsadida qarzdorning arizasi KAMI bazasida elektron ro'yxatdan o'tgandan so'nggina u to'g'risidagi axborot bankka taqdim etiladi.

KAMIning dasturiy ta'minoti Markaziy bankning Axborotlashtirish bosh markazi tomonidan yaratilgan va shu bugungacha to'xtovsiz takomillashtirilib kelmoqda. KAMI dasturiy majmuasi Markaziy bankning boshqa mujmualari singari eng zamonaviy dasturiy texnik jihozlar bilan ximoyalangan. Aniqroq qilib aytganda, quyidagi bosqichlar chetdan tizimga kirish xavfini ehtimolini yo'qqa chiqaradi:

1. Shifrlangan bank telekommunikatsiya tarmog'i;
2. Kriptografik server;
3. Shaxsni imzo va parollar bilan aniqlash (identifikatsiya);
4. Ma'lumot bazasining himoya tizimi.

Bu bosqichlarning amaliyotda qo'llanilishi o'z samarasini namoyish etdi, o'tgan vaqt davomida KAMIda biror bir xavfli holat sodir bo'lmadi.

Xorijiy ekspertlarning fikricha, kredit axboroti almashinuvi tizimini yaratish katta muddat va mablag' talab qiladi, xalqaro tashkilotlar esa bu tizimning tashkil etilishi va samarali ishlashi, buning uchun davlat idoralaridan ham axborot olinishiga katta e'tibor qaratayotganliklari uning mamlakat reytingida juda muhim ko'rsatkich ekanligini bildiradi.

Jahon tiklanish va taraqqiyot bankining har yili e'lon qilinadigan "Doing Business (Tadbirkorlikning olib borilishi)" tadqiqotida (unda 180 dan ortiq mamlakat qatnashadi) kredit axboroti almashinuvi tizimining ishlashi hisobga olinadi.

2.2.Garov reystri ish faoliyatining tashkil etilishi

Garov reystri – kreditorlarning kredit tavakkalchiligini pasaytirishga xizmat qiladi. Bugungi kunda barcha tijorat banklari, mikrokredit tashkilotlari va lombardlar, shuningdek, boshqa xo'jalik subyektlari hamda jisoniy shaxslar garov reystri xizmatidan foydalanmoqda. Bu mamlakatimizning moliya-banktizimini xalqaro standartlarga mos infratuzilma bilan ta'minlash hamda kreditorlar manfaatlarini yanada ishonchli himoyalashda qo'l kelmoqda. Garov reystridan real vaqt rejimida internet axborot tarmog'i orqali foydalanish imkoniyati ta'minlanmoqda. Bu tizim Xalqaro moliya korporatsiyasining garov reystri bo'yicha xalqaro ekspertlari tomonidan yuqori baholanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining "2011-2015-yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish, uning barqarorligini oshirish va yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi 2010-yil 26-noyabrdagi 1438-sonli Qarorida O'zbekiston Respublikasi "Garov reestri to'g'risida"gi Qonun loyihasi tuzish ko'zda tutilgan edi. Ushbu qonun 2013-yil 23-oktyabrda kuchga kirdi.

Garov reestrini tashkil etishning zaruriyati qarzdorning boshqa joyga garovga qo'yilgan mulki bor-yo'qligi to'g'risida kreditorlarni xabardor qilish, qarzdor o'z majburiyatini bajarmagan taqdirda, kreditorlarning o'rtasida qarzni undirish ketma-ketligini aniqlash masalasidan kelib chiqqan.

Ma'lumki, bir shaxs bir mulkni bir necha majburiyat ta'minoti uchun bir necha marta garovga qo'yishi mumkin. Odatda esa kreditorlar qarzdorning mulki boshqa joyda ham garovda ekanligidan bexabar bo'ladi. Biroq qarzdor o'z majburiyatini bajarmagan taqdirda, kreditorlarning o'rtasida qarzni undirish ketma-ketligi kabi munozarali masala paydo bo'ladi. Ushbu hol nafaqat bank va qarzdor o'rtasida, balki, biznes subyektlarining shartnomaviy munosabatlarida ham uchrashi mumkin.

Garov reestri va unda garovga olingan mulkni unda ro'yxatga olish tizimining mohiyatini tushunish uchun quyidagi tushunchalarga e'tibor berishimiz kerak:

Garov reestri (keyingi o'rinlarda reestr) - garovga olingan va garovdan chiqarilgan mulk hamda konkret shaxsning garovga olingan va garovdan chiqarilgan mulki to'g'risidagi ma'lumotlarni hisobga oluvchi elektron bazasidir.

Garovga qo'yilgan mulkni (keyingi o'rinlarda garov) reestrda ro'yxatga olish garovga mulk qo'yilgan haqida reestrda axborot yuborish orqali amalga oshiriladi.

Garovni reestrda ro'yxatga olish quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi:

- reestrda garov bitimlarini hisobga olish;
- garov bitimini qaysi shaxs (kreditor) avval reestrda ro'yxatdan o'tkazgan bo'lsa, boshqa kreditorlarga nisbatan ustunlikka egalik huquqini berish, ya'ni o'z haqini qarzdordan undirishda kreditorlarning ketma-ketlik navbatini tashkil etish;
- kreditorlarning (yuridik va jismoniy shaxslar) garovdagi mulk, uni garovga qo'yuvchi, mulk egasi to'g'risida ishonchli va to'g'ri axborot olishlarini ta'minlash.⁷

Garovni ro'yxatga olish subyektlariga mulkni garovga olish shartnomasini imzolagan tomonlar(garovga qo'yuvchi, garovga oluvchi) yuridik va jismoniy shaxslar kiradi.

Qarzdor o'z majburiyatini bajarmagan taqdirda, qarzni undirish garovga qaratiladi. Kreditorlar foydasiga garovdagi mulkka egalik qilish huquqi ketma-ketlik tamoyili asosida amalga oshiriladi. Ya'ni garov to'g'risida axborotni reestrda boshqalardan oldin kiritgan kreditor bu mulkka egalik huquqini qo'lga kiritadi va boshqa kreditorlarning talabi undan keyingi navbatda qondiriladi.

Garov olingan mulkni reestrda ro'yxatga olishning 2 shakli mavjud:

- reestrda belgilangan kreditorlar (registratorlar) doirasigina axborot yuboradi. Bunda tartib va mas'uliyat kuchayishidan umid qilish mumkin. Biroq, reestrda axborot to'liq bo'lmaydi. Shuningdek, bu tartib xalqaro tashkilotlarning e'tiroziga ham sabab bo'ladi (Jahon banki, XMK, YETTB);

⁷O'zbekiston Respublikasi "Garov reestri to'g'risida"gi qonun, 2013-yil 23-oktyabr.

- reestrğa barcha yuridik va jismoniy shaxslar (kreditorlar) axborot yuborish huquqiga ega. Bu tajriba ancha keng tarqalgan, axborot nisbatan ko'proq yig'iladi.

Kiritilayotgan axborotda garov kimga tegishli ekanligini, kimning majburiyati uchun qo'yilganligi aniq ko'rsatilishi shart. Qonunchilikda, garovga olingan mulk haqidagi axborot notarial tasdiqlangandan so'ng reestrğa yuborilishi to'g'risidagi shart ko'zda tutilishi ham mumkin. Lekin bu qoidani xorijiy tajriba qo'llab-quvvatlamaydi. Chunki, o'ta shaxsiy ma'lumotlarni oshkor qilish qonunchilikka zid bo'lib chiqishi ehtimoli ham mavjud.

Garov to'g'risidagi axborotni kiritgan shaxs (kreditor), majburiyat bajarilgandan so'ng mulk garovdan ozod qilinganligi to'g'risidagi ma'lumotni bir ish kuni ichida kiritishi shart. Bunda faqat mulkni garovga oluvchi shaxs mulkning garovdan ozod qilinganligi to'g'risidagi axborotni kiritish huquqiga ega.

Reestrğa kiritiladigan axborot juda sodda, aniq hamda eng zarur ma'lumotlarni o'z ichiga olishi zarur:

- garov to'g'risidagi ma'lumot-garovning nomi va batafsil tavsifi, soni, miqdori, modifikatsiya raqami, zavodda chiqarilgan vaqti va qo'yilgan raqami, davlat raqami va boshqalardan iborat;

- kreditor (mulkni garovga oluvchi) va mulkning egasi to'g'risidagi ma'lumotlar-kreditorning soliq to'lovchining individual raqami (STIR), telefon raqami, manzili, faks raqami, elektron pochta manzili, agar jismoniy shaxs bo'lsa qo'shimcha ravishda uning familiyasi, ismi, otasining ismi, pasport ma'lumotlari, STIRni (agar mavjud bo'lsa) o'z ichiga oladi;

- qarzdor va/yoki mulkni garovga qo'yuvchi to'g'risidagi ma'lumotlar esa qarzdorning (mulkni garovga qo'yuvchi) STIRi, telefon raqami, adres, faks raqami, elektron pochta manzili, agar jismoniy shaxs bo'lsa qo'shimcha ravishda uning familiyasi, ismi, otasining ismi, pasport ma'lumotlari, STIRidan (agar mavjud bo'lsa) tashkil topadi.

Shuni ham alohida ta'kidlash joizki, jismoniy shaxsning telefon raqami, manzili va boshqa shaxsiy ma'lumotlarini reestrğa yuborish hamda boshqa

shaxslarga taqdim etish masalasiga alohida e'tibor berish kerak. Reestrda uzluksiz ravishda axborot olish imkoni bo'lishi lozim. Undan olingan axborot bo'yicha qanday qaror qabul qilish foydalanuvchining mutlaq huquqidir, reestr ma'lumotlaridan faqat axborot sifatida foydalaniladi.

Bir shaxsning boshqa shaxsga mol-mulkni yoki unga bo'lgan huquqni majburiyatlarni ta'minlash uchun berishi garov hisoblanadi.

Garovga ko'ra qarzdor (garovga qo'yuvchi) garov bilan ta'minlangan majburiyatni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda kreditor (garovga oluvchi) bu majburiyat bo'yicha garovga qo'yuvchi tomonidan garovga qo'yilgan mol-mulkning qiymatidan boshqa kreditorlarga qaraganda imtiyozli suratda qanoatlantirilishiga haqli bo'ladi, qonunda belgilab qo'yilgan hollar bundan mustasno.

Qonun bo'yicha haqiqiy bo'lgan har qanday majburiyatning: zayom, bank krediti, ijara, oldi-sotdi, yuklarni tashish va huquqning har qanday subyektlari (jismoniy va yuridik shaxslar, davlat) o'rtasidagi boshqa majburiyatlarning bajarilishi garov bilan ta'minlanishi mumkin. Majburiyat pul birliklarida (milliy valyutada yoki chet el valyutasida) ifodalangan bo'lishi lozim.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining garov to'g'risidagi qonun hujjatlaridagidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, u holda xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

Garov shartnoma yoki qonunlarga ko'ra vujudga keladi. Garovning vujudga kelishini nazarda tutuvchi qonunda qanday majburiyatga ko'ra va aynan qaysi mol-mulk garovda turgan deb e'tirof etilishi lozimligi ko'rsatilgan bo'lishi lozim.

Garov zakalat, ipoteka, shuningdek huquq garovi tarzida amal qilishi mumkin.

Har qanday mol-mulk, shu jumladan ashyolar va mulkiy huquqlar (talablar) garov narsasi bo'lishi mumkin, muomaladan chiqarilgan mol-mulk, kreditorning shaxsi bilan uzviy bog'liq bo'lgan talablar, xususan hayoti yoki sog'lig'iga etkazilgan zararni qoplash to'g'risidagi talablar, alimentlar to'g'risidagi talablar

hamda boshqa shaxsga berilishi qonun bilan man etilgan boshqa talablar bundan mustasno.

Garov to'g'risidagi shartnomada, qonun asosida vujudga keladigan garovga nisbatan esa qonunda garovga qo'yuvchi kelgusida qo'lga kiritadigan ashyolar va mulkiy huquqlar garovi nazarda tutilishi mumkin.

Agar shartnomada yoki qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, mol-mulkka nisbatan garov huquqi mol-mulkning narsalarini va tarkibiy samarasini ham o'z ichiga oladi. Garovga qo'yilgan mol-mulkdan foydalanish natijasida olingan samara, mahsulot va daromadlarga nisbatan garov huquqi shartnomada nazarda tutilgan hollarda tatbiq etiladi.

Tarixiy, madaniy yoki o'zgacha qimmatbaholigi tufayli yoxud davlat xavfsizligi nuqtai nazaridan garov qo'llanilishi mumkin bo'lmagan ob'ektlar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilab qo'yiladi. Undiruv qaratilishi mumkin bo'lmagan fuqarolarning ayrim turdagi mol-mulkini garovga qo'yish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda man etilishi yoki cheklanishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida»gi Qonunining 52-moddasiga muvofiq ijro hujjatlari ijro etilayotganda jismoniy shaxslarga nisbatan undiruv qarzdorning oilasi normal turmush kechirishi uchun zarur bo'lgan uy-joy, kvartira, uy anjomlari hamda jihozlari, kiyimlar va boshqa buyumlarga qaratilishi mumkin emas, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Agar shartnomada yoki qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, garov talabning amalda qondirish paytidagi hajmini ta'minlaydi, xususan foizlar, neustoyka, ijroni kechiktirib yuborish natijasida etkazilgan zarar to'lanishini, shuningdek garovga oluvchining garovga qo'yilgan ashyoni saqlashga qilgan zarur xarajatlari va undiruv xarajatlari to'lanishini ta'minlaydi.

Birgalikdagi umumiy mulk bo'lgan mol-mulk faqat barcha mulkdorlarning yozma roziligi bilan garovga berilishi mumkin.⁸

Bir nechta shaxsga birgalikda qarashli bo'lgan huquq uning barcha egalari roziligi bilangina garovga qo'yilishi mumkin.

Mulkdorning umumiy ulushli mulkdagi o'z ulushini garovga qo'yishi qolgan mulkdorlarning rozilik berishini talab qilmaydi.

Yuridik yoki jismoniy shaxslar garovga qo'yuvchi yoki garovga oluvchi bo'lishlari mumkin. Qarzdorning o'zi ham, uchinchi shaxs ham garovga qo'yuvchi bo'lishi mumkin. Ashyoning mulkdori ashyoni garovga qo'yuvchi bo'lishi mumkin, garovga qo'yiladigan huquqning egasi bo'lgan shaxs huquqni garovga qo'yuvchi bo'lishi mumkin. Agar qonunda yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, mulkdorning rozilgisiz ashyoviy huquqni garovga qo'yishga yo'l qo'yilmaydi.

Agar tasarrufdan chiqarilganda boshqa shaxs yoki organning roziligi yoki ruxsatini olish talab etiladigan mol-mulk ipoteka narsasi bo'lsa, bunday mol-mulk ipotekasi uchun ham shunday rozilik yoki ruxsat olish zarur.

Davlat mulkida bo'lgan va hech kimga xo'jalik yuritish huquqida birlashtirilgan ko'chmas mulk garovi to'g'risidagi qaror O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilinadi.

Mol-mulk to'liq xo'jalik yuritish huquqi bilan birlashtirib qo'yilgan korxona, shu mol-mulk egasining yoki u vakolat bergan organning roziligi bilan umuman korxonaning, mulkiy majmualar sifatida uning tuzilmalari va bo'linmalarining, shuningdek alohida binolar va inshootlarning garovini amalga oshiradi.⁹

O'ziga birlashtirib qo'yilgan mol-mulkni bevosita idora qilish huquqiga ega bo'lgan muassasa (tashkilot) o'ziga ruxsat etilgan xo'jalik faoliyatidan olingan daromadlar hisobiga orttirilgan ashyolar yoki huquqlarni garovga berishga haqlidir.

⁸O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 7-dekabrda 320-II-son Qonuni tahririda-Oliy Majlis Axborotnomasi, 2002 y., 1-son, 20-modda.

⁹O'zbekiston Respublikasining 2001 yil 7 dekabrda 320-II-son Qonuniga muvofiq beshinchi va oltinchi qismlar bilan to'ldirilgan — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2002 y., 1-son, 20-modda.

Mulk huquqining keyinchalik boshqa mulkdorga o'tishi to'liq xo'jalik tasarrufi yoki bevosita boshqaruvi ostidagi mol-mulk garoviga daxl qilmaydi.

Ijarachi ijara shartnomasida nazarda tutilgan hollardagina ijaraga beruvchining rozilgisiz o'zining ijaraga oid huquqlarini garovga o'tkazishga haqlidir. Boshqa davlatlarning yuridik va jismoniy shaxslari, shuningdek fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, garovga oid munosabatlarda O'zbekiston Respublikasining yuridik va jismoniy shaxslari bilan ayni bir xil huquqlardan foydalanadilar hamda ayni bir xil majburiyatlarga ega bo'ladilar.

Garov huquqi garov to'g'risida shartnoma tuzilgan paytdan yoxud, basharti shartnoma notarial tasdiqlanishi shart bo'lsa notarial tasdiqlangan paytdan, shartnoma ro'yxatdan o'tkazilishi shart bo'lganida esa u ro'yxatdan o'tkazilgan paytdan boshlab vujudga keladi.

Agar shartnomaga yoki qonun hujjatlariga muvofiq garov narsasi garovga oluvchida turishi lozim bo'lsa, garov huquqi unga garov narsasi berilgan paytda, agar garov narsasi shartnoma imzolangunga qadar berilgan bo'lsa, shartnoma imzolangan paytda vujudga keladi. Garov narsasi bo'lgan mol-mulk qonunda belgilangan asosda va tartibda majburiy olib qo'yilgan hollarda, agar buning evaziga garovga qo'yuvchiga boshqa mol-mulk berilgan bo'lsa, garov huquqi shu mol-mulkka nisbatan tatbiq etiladi.

Mol-mulk qisqa muddatli (olti oyga qadar) kreditga sotilgan taqdirda, garov huquqi sotib oluvchi va mol-mulk savdosining ana shu turini amalga oshirish o'z faoliyati doirasiga kiradigan sotuvchi o'rtasida shartnoma tuzilgan paytdan vujudga keladi. Garov to'g'risidagi shartnomada tomonlarning nomi, joylashgan manzili (yashash joyi), garov turi, garov narsasi va uning bahosi, mohiyati, miqdori va garov bilan ta'minlanadigan majburiyatning bajarilish muddati, garovga qo'yilgan mol-mulkning ro'yxati, shuningdek tomonlarning kelishuviga erishilgan boshqa ma'lumotlar ko'rsatilgan bo'lishi zarur. Unda garovga qo'yilgan mol-mulk tomonlarning qaysi birida ekanligi ham ko'rsatilishi shart.

Garov narsasini baholash garovga qo'yuvchi bilan garovga oluvchi o'rtasidagi kelishuvga ko'ra yoki baholash faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq garov narsasini baholashdan o'tkazish orqali amalga oshiriladi.¹⁰

Garov to'g'risidagi shartnoma yozma shaklda tuzilishi kerak. Ipoteka to'g'risidagi shartnoma, shuningdek notarial tasdiqlanishi kerak bo'lgan shartnomaga muvofiq olinadigan majburiyatlarni ta'minlash yuzasidan ko'char mol-mulkni yoki mol-mulkka bo'lgan huquqlarni garovga qo'yish to'g'risidagi shartnoma notarial tasdiqlanishi shart. Ipoteka to'g'risidagi shartnoma tegishli mol-mulk haqida tuziladigan bitimlarni ro'yxatdan o'tkazish uchun belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilishi kerak.¹¹

Agar qonunda yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, garovga qo'yuvchi yoki garovga oluvchi qo'yilgan mol-mulk kimdaligiga qarab:

1) garovga qo'yilgan mol-mulk yo'qolishi yoki shikastlanishi xavfidan uning to'la qiymati bo'yicha, bordi-yu mol-mulkning to'la qiymati garov bilan ta'minlangan talabning miqdoridan oshib ketsa, talab miqdoridan kam bo'lmagan summaga garovga qo'yuvchi hisobidan sug'urtalashi;

2) garovga qo'yilgan mol-mulkning asralishini ta'minlash uchun, shu jumladan uni uchinchi shaxslarning tajovuzlari va talablaridan himoya qilish uchun zarur choralarni ko'rishi;

3) garovga qo'yilgan mol-mulk yo'qolishi yoki uning shikastlanishi xavfi paydo bo'lganligi to'g'risida ikkinchi tomonni darhol ogohlantirishi shart.

Shartnoma yoki qonun hujjatlari bilan garovga qo'yuvchi zimmasiga davlat boshqaruv organlari tomonidan uning xo'jalik faoliyatini to'xtatib qo'yuvchi yoxud unga xalaqit beruvchi yoki unga salbiy ta'sir etuvchi xatti-harakatlar sodir etilishi va hujjatlar qabul qilinishi (mol-mulkni musodara, rekvizitsiya qilish), shuningdek tugatilishi yoki xo'jalik subyekti to'lov qobiliyatini yo'qotgan deb e'tirof etilishi

¹⁰O'zbekiston Respublikasining 2007 yil 5 apreldagi O'RQ-83-sonli Qonuni bilan yangi tahrirda ikkinchi qism 10-modda ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi qismlari - O'R QHT, 2007 y, 14-son, 132-modda

¹¹«Ipotekani davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi to'g'risida»gi Muvaqqat yo'riqnomaga (ro'yxat raqami 1798, 25.04.2008 y.

hollarida sug'urta qilish majburiyati yuklanishi mumkin. Garovga qo'yilgan mulk sug'urta qilinganda garov bilan ta'minlangan majburiyat summasidan ortiq bo'lmagan summada sug'urta tovonini oluvchi - garovga oluvchi hisoblanadi. Garovga qo'yuvchi sug'urta tovonining qolgan summasini oladi. Sug'urta hollari sodir bo'lganda garovga oluvchi o'z talablari sug'urta tovonini summasidan imtiyozli qondirilishi huquqiga ega bo'ladi. AITB "Ipak Yo'li" banki tomonidan 01.01.2010-yildan 05.06.2017-yilgacha bo'lgan vaqt oralig'ida garov reystriga yuborilgan buyurtmalari soni 11 946 mingga tashkil qilgan.

2.3. O'zbekistonda kredit axborot almashinuv tizimi tahlili

Ma'lumki, bank tizimi samaradorligini oshirish banklarning iqtisodiyot real sektorini kreditlashdagi faol ishtiroki bilan bog'liq. Bugungi kunda tijorat banklari kreditlash faoliyatida bir qator muammolarga duch kelmoqda, banklarning kredit portfeli tarkibi sifat jihatidan tubdan o'zgarmoqda. Natijada hozirgi kunda yurtimizda xalqaro andozalarga mos keladigan kredit tizimi shakllantirilgan va uni rivojlantirish ishlari davom ettirilmoqda.

Shunga qaramay banklarning kredit portfelini muntazam qayta ko'rib, uni sog'lomlashtirish borasida bir qancha ishlarni boshqarib, banklarning kredit portfelidagi muammolik kreditlarning ulushini sezilarli darajada kam qilish boshqarilmoqda. Natijada hozirgi kunda yurtimizda xalqaro andozalarga mos keladigan kredit tizimi shakllantirilgan va uni rivojlantirish ishlari davom ettirilmoqda.

Mamlakatimiz birinchi Prezidenti I. A. Karimov bank moliya, kreditlashtirish tizimini rivojlantirishga har doim e'tibor qaratganlar, va boshqarib borganlarida, "Banklarni tomonidan faqat ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va texnologiya bilan shakllantirishni moliyalashtirishga kreditlarni o'zlashtirish kerak deb ta'kidlab o'tganlar"¹².

¹² www.iqtisodiyot.uz

Ilmiy adabiyotlarda muammoli kreditlar bo'yicha turli ta'riflar berilgan. Ayrim adabiyotlarda muammoli kredit deganda, ob'ekti, subyekti vata'minotiga nisbatan bank tomonidan shubha paydo bo'lgan kredit tushunilsa, ayrim adabiyotlarda muammoli kreditlar deganda, "qarz oluvchi bir yoki birnecha to'lovlarni amalga oshirmaganligi yoki kredit ta'minoti qiymatining pasayishi kreditni muammoli kreditlar turkumiga o'tishini anglatadi", deyata'rif berilgan¹³.

Fikrimizcha, muammoli kredit deganda, "substandart", "shubhali" va "umidsiz" kreditlar sifatida tasniflangan kreditlar tushuniladi. O'zining iqtisodiy mohiyatiga ko'ra, muammoli kreditlar kredit risklarining amaldagi yaqqol namoyon bo'lishi natijasidir, chunki bu bank tomonidan kredit risklarini to'g'ri boshqara olmaslik oqibati hisoblanadi. Kredit to'plamini tashkil etish va uni tahlil qilish jarayonida muammoli kreditlar vujudga kelishiga quyidagi omillar ta'sir etishi mumkin:

1. Kredit olish uchun berilgan buyurtmanomani yuzaki ko'rib chiqish.
2. Kredit oluvchining kredit qobiliyatini va qarz berish bilan bog'liq xatarni noto'g'ri baholash.
3. Kredit foizini noto'g'ri belgilash.
4. Kredit shartnomasini noto'g'ri tuzish.

Tijorat banklarida muammoli kreditlarni ko'pchilik bank mijozlarining qoniqarsiz oliyaviy ahvoli, qarzdorni kredit olish qobiliyatini noto'g'ri baholash keltirib chiqaradi.


Muammoli kreditlarni kamaytirishda kredit axborot byurolarining o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Bu borada kredit axboroti almashinuvitizimining yo'lga qo'yilishi soha rivojiga ulkan hissa qo'shmoqda. "Kredit axboroti almashinuvit o'g'risida" qonunning qabul qilinishi ham fi krimizning yaqqol dalilidir. Samarali kredit axboroti almashinuvi kreditlarning qaytmaslik holatlarining oldini oladi, ya'ni muammoli kreditlar kelib chiqish sabablarining kamayishida asosiy dastaklardan sanaladi. «Kredit axboroti

¹³ Iqtisodiyot va innovatsiyalar jurnali №5, sentabr – oktabr, 2015-yil

almashinuvi to'g'risida»gi Qonunning asosiy maqsadikredit tashkilotlarini istiqboldagi qarz oluvchilar to'g'risida ma'lumotlarbilan ta'minlash, kredit tavakkalchiligini kamaytirish va moliya-kreditintizomini mustahkamlashdan iborat.Shubois,mamlakatimizdademokratikislohotlarniyanadachuqurlashtirish vafuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontsepsiyasida“Kredit axboroti almashinuvi to'g'risida”gi Qonunni qabul qilish zarurligialohida qayd etilgan edi.

Bugungi kunda ushbu qonun asosida O'zbekiston Respublikasi Markaziybankida kredit axborotining davlat reestrini yuritish bo'yicha Kreditaxboroti milliy instituti va kredit byurosi faoliyatini amalga oshirishuchun litsenziyaga ega bo'lgan «Kredit-axborot tahliliy markazi» kreditbyurosi»MCHJtashkiletilgan.Ularbanklarvaboshqakredittashkilotlarining qarzdorlari to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash, tahlilqilish vategishli axborotlar bazasini shakllantirish bo'yicha faoliyatniamalga oshirmoqda.Tijoratbanklariningkreditoperatsiyalaridagieng “og'riqli nuqtalardan” biri muddati uzaytirilgan qarzlarning qaytarilishi bo'libhisoblanadi.


Qonun qabul qilingach O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining2012yil 17 martdagi “Kredit axboroti almashinuvi to'g'risida”gi O'zbekistonRespublikasiQonunini amalga oshirish to'g'risida” 74-sonli qarori bilan“Banklararo kredit byurosi”negizida “Kredit tahliliy markazi” kreditbyurosi tashkil etildi.



2-rasm.
Kreditbyurosi axborot bazasidagi jismoniy va yuridik shaxslar to'g'risidama'lumotlari¹⁴

2-rasm ma'lumotlaritaxliligako'ra, 2015-yil 1-yanvar holatiga kreditbyurosi axborotlar bazasida 939 007 yuridik shaxs va 877 878 jismoniy shaxs to'g'risidama'lumotlar mavjud bo'lsa, 2016-yil 1-yanvar holatiga kelib bu ko'rsatkich mos ravishda 1 602 154 va 4 212 526 ta nitashkilotganli giniko'rishimiz mumkin. Kredit byurolaridan olinayotgan ma'lumotlar sonining oshi shundan darak beradiki, har bir tijorat bank tomonidan berilayotgan kreditlarning qaytmaslik xatarini oldini olish yo'lida samarali faoliyat ko'rsatilmoqda. Kredit qaytmaslik xatarining ma'lum darajada oldini olinishi bu mamlakat iqtisodiyotiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

¹⁴Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali. №5 sentabr-oktabr, 2015-yil




3-rasm. Kredit byurosi tomonidan tijorat banklariga taqdim etilgankreditaxborotlar soni¹⁵

Shuningdek, tijorat banklariga taqdim etilgan kredit axborotlar soni 3-rasm ma'lumotlariga ko'ra, 2015 yil davomida 482341 tani tashkil etilgan bo'lsa, 2016 yil natijasiga ko'ra 654856 tani tashkil etib, bir yarim barobarga oshgan.

Kredit axborot byurosi tomonidan taqdim etilayotgan ma'lumotlar yordamida banklarning kredit portfeli sifatini yaxshilash, yomon aktivlar bo'yicha zaxira yaratish xarajatlari kamayishiga, nisbatan yuqori moliyaviy natijalarga erishildi.

Bundan tashqari, samarali kredit axborot almashinuv tizimi yaratilishi natijasida kreditlar xajmining oshishiga va ishonchli mijozlarga minimal talablar asosida kredit berilishiga, kredit bozorida raqobatning oshishi va foiz stavkalarining pasayishiga erishildi, ya'ni qonun qabul qilinishidan ko'zda tutilgan maqsadlar amalga oshishi ta'minlangan.

¹⁵Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali. №5 sentabr-oktabr, 2015-yil



4-rasm. Kredit byurosi axborot bazasi ma'lumotlari soni dinamikasi¹⁶

4-rasm ma'lumotlariga ko'ra 2015 yil 1 yanvar xolatiga kredit byurosi axborotlar bazasida jami yuridik va jismoniy shaxslar to'g'risida 1816885 ta ma'lumot mavjud bo'lsa, 2016 yil 1 yanvar holatiga kelib bu ko'rsatkich 5814680 tani tashkil etgan.

Kredit axboroti almashinuv tizimining joriy etilishi natijasida kredit tarixi, ishbilarmonlik obro'si tushunchalari kredit tashkilotlari vasalohiyatli tashkilotlar ongiga singib borib, kundalik hayotda tobora mustahkam o'rin egallab bormoqda.

Natijada, birinchidan, kredit tashkilotlari qarzdorlar to'g'risida axborot olish, kredit riskini pasaytirish, kredit tizimini mustahkamlash imkoni ortdi, bir shaxsning bir necha bankdan yoki kredit tashkilotidan kredit olish hollariga kamaydi. Ikkinchidan, qarzdorlarda kredit intizomini mustahkamlashga, qarzmajburiyatlarini o'z vaqtida qaytarishga bo'lgan qiziqishni oshirdi, ularda o'z moliyaviy obro'sini himoyalash hissi paydo bo'ldi. Uchinchidan, bank nazorati uchun haqqoniy va tezkor ma'lumot olish yo'lga qo'yildi va nihoyat, boshqa mamlakatlardan farqli o'laroq, banklar kredit qo'yilmasining balans va reestr dagi

¹⁶ www.iqtisodiyot.uz

summasining o'zaro tengligi ustidannazorat yo'lga qo'yildi, bu kredit axborotining ishonchliligini oshirdi.

Shu bilan birga, kredit axborot almashinuvi borasida zamonaviy institut tashkil etilganligi bank va boshqa kredit tashkilotlari tizimining barqarorligini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Bugunga kelib, O'zbekiston bank tizimi kapitalining yetarlilik darajasi 24,3 %ga yetib, bu belgilangan xalqaro mezonlarga nisbatan 3 barobardan ko'proqni tashkil etmoqda.

Kredit axborot almashinuvi bo'yicha huquqiy bazaning yaratilishi va buning asosida zamonaviy kredit axboroti almashinuvi tizimining tashkilotilishi, avvalo, kredit tavakkalchiligining kamayishi, kredit intizomining mustahkamlanishi, kredit portfeli sifatining yaxshilanishi, shuningdek, muammoli aktivlar bo'yicha zaxira yaratish xarajatlari kamaytirilishi, kredit portfeli hajmining oshirilishi, kredit bozorida raqobatning oshirilishi va foiz stavkalarining kamaytirilishiga erishildi.

Kreditlarni qaytarmaslik xavfini kamaytirishda kredit axborot almashuvining samarali tizimini yaratish orqali yirik kredit subyektlarining kredit xatarlarini to'g'ri baholash, qarz oluvchilarning kreditga layoqatligi, moliyaviy ahvoli va ularning ishbilarmonlik qobiliyatini tahlil qilish imkoniyatlari yuzaga chiqadi.

Tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlarning muammoli kreditlarga aylanmasligini ta'minlash maqsadida quyidagi takliflarni keltirib o'tamiz:

- kredit uchun kelib tushgan ariza bo'yicha atroflicha yondashuv, ya'ni dastlabki monitoringini to'g'ri va mukammal amalga oshirish. Bu yerda, birinchi navbatda, mijozning xarakteriga, uning moliyaviy ahvoliga, biznes hamkorlari o'rtasidagi mavqeiga hamda ushbu sohadagi tajribasiga e'tibor qaratish;

- kredit arizasi ko'rib chiqilayotgan davrda uning bankka taqdim etayotgan hujjatlar to'plamining to'liqligini ta'minlash, ularning to'g'riligini tekshirish talab etiladi. Kredit bo'limi xodimi tomonidan uning moliyaviy ahvoli chuqur tahlil etilishi va xolisona baho berilishi kerak;

- kredit ajratilgan davrdan boshlab, mijozning biznes-reja bo'yicha amalga oshirayotgan ishlarini, hisobraqamidagi mablag'lar aylanmasini doimiy ravishda

nazorat qilib borish, mol yetkazib beruvchilar bilan hisoblashishlar o'z muddatida amalga oshirilishi, muddati o'tgan debitorlik kreditorlik qarzdorliklariga yo'l qo'ymaslik choralarini ko'rish;

- kredit ta'minoti sifatida taqdim etilgan mol-mulkni saqlash va ekspluatatsiya sharoitini doimiy ravishda nazorat qilib borish;

- kredit ta'minoti sifatida uchinchi shaxsning kafillik shartnomasi taqdim etilgan bo'lsa, kafilning moliyaviy hisobotlarini har chorakda bir marotaba tahlil qilib, uning to'lov qobiliyatini o'rganib borish kerak;

Ma'lumki, kredit axborot almashinuvi, odatda, davlat reestri yokinodavlat kredit byurolari tomonidan olib boriladi. Chunonchi, ayrim mamlakatlarda bu markazlashgan yagona pog'onali kredit axborot almashinuvitizimi hisoblanadi. Bunda kredit axborot almashinuvi davlat tomonidan amalga oshirilgan holda, kredit axborotlari yagona davlat reestri tomonidan yuritiladi. Ba'zi mamlakatlarda esa markazlashmagan ko'p pog'onali kredit axboroti tizimi faoliyat yuritadi. Bunda kredit axborot almashinuvi kredit byurolari va davlat tomonidan amalga oshiriladi.

Reestr ish faoliyatini tashkil etish uning faoliyatining qonuniy asoslarini mustahkamlash uchun O'zbekiston Respublikasining "Garov reestri to'g'risida"gi Qonuni qabul qilinishi, bir qator qonun va qonunosti hujjatlariga o'zgartirishlar kiritilgan. Bu kabi o'zgarishlar amalga oshirilishi natijasida garov reestri faoliyati rivojlanib, o'zgarib boradi. Albatta bunga yuqori darajada e'tibor qaratish va amalga oshirib borish lozim.

Ayrim mamlakatlarda esa kredit axborot almashinuvi kredit byurolari tomonidan amalga oshiriladi, davlat Kredit axborot almashinuvi reestrini yuritadi va kredit byurolarining faoliyatini nazorat qiladi.

Darhaqiqat, "Kredit axborot almashinuvi to'g'risida"gi Qonun kredit axboroti almashinuvi sohasidagi munosabatlarning huquqiy bazasini shakllantirgan holda, kreditorlar va qarzdorlarning kredit axboroti almashinuvida ishtirok etishlari uchun teng sharoitlar yaratadi. Qarzoluvchilarning kredit tarixini tegishli davlat

tashkilotlari va boshqakredit axborot yetkazib beruvchilar ma'lumotlari hisobiga kengaytiradi, hamda qarz oluvchilarning kredit tarixi to'g'risidagi axborotlar bazasini boyitadi.

1-jadval


AITB Ipak Yo'li Banki tomonidan kredit byurosiga berilgan buyurtmalar soni to'g'risidagi malumot¹⁷

Ma'luot turi	Soni
Jismoniy shaxslar kredit buyurtmanomasi to'g'risida ma'lumot	11 390
Yuridik shaxslar kredit buyurtmanomasi to'g'risida ma'lumot	11 850
Yopilgan kreditlar bo'yicha ma'lumot	11 884
Kredit shartnomalar bo'yicha ma'lumot	10 371
Kredit shartnomasi bo'yicha to'lov grafigi to'g'risida ma'lumot	10 334
Kredit ta'minoti to'g'risida ma'lumot	6 269
Kredit ta'minotiga qo'yilgan qimmatli qog'ozlarning to'g'risida	7 152
Kredit ta'minoti kafil yoki kafolat to'g'risida ma'lumot	6 546
Sug'urta polisi bo'yicha ma'lumot	7 121
Kredit ta'minoti deposit bo'lgani to'g'risida	7 101
Lizing shartnomalari to'g'risida	11 988
Lizing shartnomasi to'lov grafigi to'g'risida	11 990
Lizing shartnomasi obyekti to'g'risida	11 989
Factoring shartnomalari bo'yicha	12 082
Schotdagi qoldiq to'g'risida	10 818
To'lov hujjatlari to'g'risida	9 561
Schot holati to'g'risida	3 997
Mijozning boshqa majburiyatlari to'g'risida	4 894
Kredit ta'minoti to'g'risida	3 471

¹⁷AITB "Ipak Yo'li" bank monitoring departamenti bo'lim boshlig'i N.Ahunjanov. 2017y.

1-jadvaldan shuni tahlil qilish mumkinki, AITB “Ipak Yo’li” banki tomonidan 2010-yildan, 2017-yilgacha bo’lgan vaqt oralig’ida jismoniy shaxslar kredit buyurtmanomasi tog’risida ma’lumot 11 390 ta, Yuridik shaxslar kredit buyurtmanomasi tog’risida ma’lumot 11 850 tani tashkil qilgan. Eng yuqori hajmda berilgan buyurtma bu factoring shartnomalari bo’yicha berilgan buyurtma bo’lib, u 12 082 tani tashkil etgan.


Kredit o’z vaqtida to’lansa ijobiy kredit axboroti, kechikishlar bilan to’lansa yoki umuman to’lanmagan bo’lsa salbiy kredit axboroti vujudga keladi. Ijobiy kredit axboroti bo’lgan shaxslarga kredit arizasini ko’rib chiqish jarayoni tezlashtirilishi, kredit ta’minoti uchun talab summasi kamaytirilishi mumkin. KAMIda qarzdor to’g’risidagi axborot kreditni o’z vaqtida qaytarilsa 5-yil, kechikishlar bilan qaytarsa 10-yil saqlanadi. Xullas, kreditni naqadar qisqa vaqtda olish, qanday moliyaviy obro’ga ega bo’lish har kimning o’zi hal qiladi.



5-rasm. KAMI bazasidagi qarzdorlar sonining o'sish dinamikasi¹⁸

¹⁸N.Xolmurodov “kredit axboroti almashinuvi ahamiyati” Jurnal “BPK”, 2012-yil, Toshkent.

5-rasimdan ko'rish mumkinki 2005-yilda 98 mingta qarzdor 186 mingdan ortiq kredit shartnomasi to'g'risida axborot olingan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2011-yil 1-yanvar holatiga KAMIGA 732 mingdan ortiq qarzdorning 1.243 mingdan ortiq kredit shartnomasi to'g'risida axborot, ya'ni bank tizimi kredit qo'yilmasi to'liq kiritilgan. Har kuni banklarning 97 mingdan ziyod operatsiyalari qayta ishlangan va qarz oluvchilar to'g'risidagi ma'lumotlar banklarga, ularning elektron so'rovlari asosida taqdim etib borilgan.



6-rasm. KAMI bazasidagi kredit shartnomalari sonining o'sish dinamikasi¹⁹

Bundan tashqari KAMI ma'lumotlari Markaziy bankning tegishli bo'linmalarida bank nazorati maqsadida foydalanilmoqda. Markaziy bank Kredit axboroti milliy instituti orqali kredit axboroti almashinuvi tizimi tashkil etilishi natijasida:

-banklarda qarzdorlar to'g'risida axborot olish va natijada kredit riskini kamaytirish imkoni paydo bo'ldi, bunda bir shaxsning bir necha bankdan kredit olish imkoniyati keskin kamaydi.

¹⁹N.Xolmurodov "kredit axboroti almashinuvi ahamiyati" Jurnal "BPK", 2012-yil, Toshkent.

2-bob bo'yicha xulosa

Yuqoridagi fikrlardan shuni hulosa qilish mumkinki, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 17-martdagi "Kredit axboroti almashinuvi to'g'risida"gi qonunni qabul qilinishi tijorat banklarini kredit axborot almashinuvida faol va samarali ishtirok etishiga zamin yaratdi. Ya'ni, tijorat banklariga murojat qiladigan mijozlar to'g'risida ishonchli axborotga ega bo'lish imkoniyati yaratildi. kredit tashkilotlari qarzdorlar to'g'risida axborot olish, kredit riskini pasaytirish, kredit tizimini mustahkamlash imkoni ortdi, bir shaxsning bir necha bankdan yoki kredit tashkilotidan kredit olish hollari keskin kamaydi ikkinchidan, qarzdorlarda kredit intizomini mustahkamlashga, qarz majburiyatlarini o'z vaqtida qaytarishga bo'lgan qiziqishni oshirdi, ularda o'z moliyaviy obro'sini himoyalash hissi paydo bo'ldi uchinchidan, bank nazorati uchun haqqoniy va tezkor ma'lumot olish yo'lga qo'yildi va nihoyat, boshqa mamlakatlardan farqli o'laroq, banklar kredit qo'yilmasining balans va reestrda summasining o'zaro tengligi ustidan nazorat yo'lga qo'yildi. Bulardan tashqari, tijorat banklari tomonidan berilayotgan kreditlarning qaytarmaslik xatari sezilarli darajada kamaydi. Garov reystri ish faoliyatining tashkil etilishi natijasida esa, kredit ta'minoti sifatida qo'yilayotgan mol-mulk, transport vositalari ilgari ham garovga qo'yilgan yoqligi, uning qonun hujjatlari doirasida qanday holatda ekanligi to'g'risida axborotga ega bo'lish imkoniyati yaratildi. 2004-yilda Kredit Axborot Milliy Instituti tashkil etilganda kredit xboroti almashinuvi bo'yicha prinsiplar, uslub va mexanizmlar yo'q bo'lgan. Biroq O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining say-harakatlari bilan bularga erishilgan. KAMI tashkil etilgan vaqtdan 2012-yilgacha qarzdorlar to'g'risida axborot bilan ta'minlagan. 2012-yildan boshlab esa Kredit Byurosiga bu vazifa topshirilgan va hozirgi kunda bu faoliyat bilan shug'ullanmoqda. Shuni ishonch bilan aytish mumkinki mamlakatimizda axborot almashinuv tizimi samarali faoliyat yuritmoqda.

3-BOB. AXBOROT ALMASHINUVI XORIJ TAJRIBASI VA AXBOROT XAVFSIZLIGI MUHOFAZASINI TA'MINLASH BO'YICHA QO'YILADIGAN TALABLAR

3.1. Kredit axboroti almashinuvi borasidagi xorijiy tajriba

Kredit axboroti almashinuvi tizimi har xil mamlakatlarda turlicha tashkil qilingan. Ularning asosiy 2 shakli mavjud, nodavlat kredit byurosi (xususiy, notijorat, jamoat tashkiloti) hamda Kredit axboroti davlat reestri. Kredit axboroti almashinuvi borasida Jahon bankining tamoyillari, ya'ni ham yuridik ham ismoniy shaxslar to'g'risidagi axborot yig'ish va taqdim etish, ham ijobiy, ham salbiy axborotni yig'ish va taqdim etish, - subyektlarning o'zi to'g'risidagi axborotni olish imkoniyatining bo'lishi lozim.

Nodavlat yoki xususiy kredit byurosi shartnomaga binoan to'lov asosida kredit axborotini taqdim etadi. Shuningdek, u ayrim ma'lumotlarni sotib olishi ham mumkin. Jahonda eng katta kredit byuolariga (kredit axboroti kompaniyalari) "Baycorp Advantage" (Avstraliya, Yangi Zelandiya) Equifax, "Experian", "TransUnion", "Dan&Bradstreet" (AQSH), SCHUFA, "Germes" (Germaniya), "Kreditinfo" (Islandiya), "CRIF" kompaniyasi (Italiya) larni misol keltirish mumkin. Ularning yillik sof daromadlari bir necha milliard AQSH dollarini tashkil etadi. Hatto ularning ayrimlari boshqa mamlakatlarda sho'ba korxonalar, filiallar yoki qo'shma korxonalar tashkil etib, transmilliy kompaniyalarga aylanishgan. Masalan, dunyodagi eng yirik va keksa kredit byuolaridan biri "Dan end Bredstrit" (Dan&Bradstreet) kredit agentligida 48 mln. dan ortiq kompaniyalar to'g'risida ma'lumot bo'lib, uning 10 mlni AQSH kompaniyalaridir.

AQShda kredit byuolari soni mingga yaqin. Ular banklar, ipoteka kompaniyalari hamda boshqa kreditorlardan, shuningdek, davlat tashkilotlaridan qarzдорlarning to'lov qobiliyatiga ta'sir qiladigan sudda ko'rilgan da'volari, soliq qonunchiligi borasidagi tartibbuzarliklar to'g'risida axborotni yig'adilar. Ular bu axborotni kreditor-kompaniyalarga sotadilar va bu axborot asosida talabgorning kredit arizasini (buyurtmasini) rad qilish yoki kredit berish to'g'risida bir qarorga

kelishga yordam beradi. Kredit byurolarida balog'atga yetgan aholining 90 foizi to'g'risida axborot yig'ilgan, bir yil ichida 500 mlndan ortiq kredit tarixi taqdim etiladi. Axborotning saqlanish muddati 7-10 yil.

Buyuk Britaniyada kredit bitimlari to'g'risidagi ma'lumot ommaga ochiq bo'lib, oshirib yuborilgan majburiyatlar, shubhali qarzlari, firibgarlik, jinoiy daromadlarni legallashtirishning oldini oladi, qarzlarni undirishda asqotadi. Bu mamlakatda qarzdorlarning kredit axborotini yig'ish bilan shug'ullanadigan ikkita xususiy kredit agentligi mavjud. Agentliklar mutlaqo mustaqil bo'lib, ulardagi ma'lumot ham boshqalardan farq qiladi, masalan, banklar to'lanmagan kreditlardan tortib to mijozning shartnomani bajarishigacha bo'lgan ma'lumotlarga xabar beradilar. Shu bilan birga axborot olish ham har xil. Axborot olishda "qanday axborot berilsa shunday axborot olinadi" tamoyili amal qiladi. Ya'ni kimki keng axborot bersa keng axborot oladi, qisqa axborot yuborgan shaxs qisqa axborot oladi. Hozirgi vaqtda kredit axboroti va konfidentsial ma'lumotdan foydalanilishini nazorat qiluvchi byuro tuzilgan.

Germaniyada esa barcha kreditorlar (elektr energiyasi va gaz yetkazib beruvchilar, kredit hamda savdo tashkilotlari), jumladan banklar qarzdorlar to'g'risidagi ma'lumotlarni Kredit operatsiyalarining xavfsizligini ta'minlash jamiyatiga (SCHUFA) yuboradilar (u 1927-yilda elektr energiyasi yetkazib beruvchilar ehtiyoji uchun monitoring agentligi sifatida tashkil etilgan). SCHUFA Germaniyada yashovchi 18 yoshdan yuqori 62 mln. kishining 343 mln. kredit axborotiga ega. SCHUFA davlat idoralari, jumladan, sudlarning bankrotlik registri ma'lumotlari, mulk va ko'chmas mulk registri ma'lumotlari, Germaniyadaga barcha banklarning to'lovlarning holati va o'tkazilishi to'g'risidagi ma'lumotlarini hamda kredit kartochkalari ma'lumotlarini olish imkoniyatiga ega.

Bankdan tashqari, **Germaniya** Markaziy bankida (Bundesbank) kredit axboroti davlat reestri ham tashkil etilgan. Uning ma'lumotlari bank nazorati uchun, qarzdorlarga reyting berish va makroiqtisodiy tahlil uchun foydalaniladi.

Bundesbankning ijobiy reytingini olish kompaniyalar uchun judda katta ahamiyatga ega.

Meksikada 1990- yillar boshlarida moliyaviy inqiroz yuz berganda Xalqaro valyuta fondi (XVF) qo'ygan shartlardan biri ham xususiy kredit byurosi tashkil etish edi. Markaziy bank ham hukumat ham kredit byurosining kapitalida ishtirok etmaydi. Lekin, uning daromadliligi darajasi 20 foizdan oshmasligi to'g'risida Hukumat talabi qo'yilgan. Axborot olish pullik, lekin, kredit byurosi belgilangan vaqtda axborotni taqdim etolmasa u bepul beriladi. Kredit byurolari jismoniy va yuridik shaxslar uchun alohida tashkil etilgan. Kredit byurosiga banklar, nobank kredit tashkilotlari, tovarni kreditga sotuvchilar axborot yuboradilar.

Peruda bir nechta kredit byurosi bo'lib, ularning eng yirigi "Credit Report S.A." xalqaro kompaniyasi 1964-yilda tashkil etilgan, 1970-yildan boshlab Boliviya va Ekvadorda keyinchalik butun Lotin Amerikasida o'z filiallari tarmog'ini tashkil etdi. Kredit axboroti xususiy shaxslarga va raqobatdosh kompaniyalarga taqdim etilmaydi. "Credit Report S.A." xorijiy banklar, eksportchilar, eksport-sug'urta kompaniyalarining so'rovlariga xizmat ko'rsatadi. Davlat reestrlaridan, banklardan olinadi. 3 xil kredit tarixi taqdim etiladi, ya'ni odatiy (2-12 ish kuni), shoshilinch (2-7 ish kuni) va o'ta shoshilinch (2-4 ish kuni) bo'lib ularning baholari bir-biridan farq qiladi.

Rossiya Bankida Kredit tarixi Markaziy katalogi tashkil etilgan. U kredit tarixi subyektlari va foydalanuvchilariga faqat so'ralayotgan subyektning kredit tarixi qaysi kredit byurosida saqlanayotganligi to'g'risidagi ma'lumot beradi.

Frantsiyada kredit tashkilotlari kredit axborotini Frantsiya Markaziy bankida departament huquqiga ega bo'lgan kredit axboroti davlat reestri ya'ni Kredit risklari Markaziy byurosiga majburiy ravishda taqdim etadilar.

Shveytsariyada banklar tomonidan o'z mulklarini ehtimoliy yo'qotishlardan himoya qilish uchun amaldagi va bo'lajak mijozlar hamda sheriklar haqida axborot yig'ish va tahlil qilish tizimi yo'lga qo'yilgan. Tizim mijozning ishonchsizligi yoki uning mablag'larining shubhali manbalari bilan bog'liq muammolar paydo bo'lgan

taqdirda bank obro'sini himoya qilish maqsadida kafolatlar olish va tasdiqlovchi hujjatlar talab qilib olishni ta'minlaydi. Bu tizimning asosiy tamoyili "O'z mijozingni bil" bo'lib, bank nafaqat hisobraqamning haqiqiy egasini balki, uning biznesning xususiyatlarini ya'ni uning o'tkazayotgan operatsiyalarining mohiyatini o'rganishi lozimligini bildiradi.

Qirg'izistonda "Ishenim" kredit byurosi mavjud, biroq unga hamma banklar ham axborot yubormaydilar, shuning uchun ham uning faoliyati samarali emas, kredit axboroti almashinuvini tartibga soluvchi qonun qabul qilinmagan.

Qozog'istonda "CRIF" (Italiya) kompaniyasining sho'ba korxonasi tashkil etilgan. Ko'rinib turganidek, kredit axboroti almashinuvi tizimini tashkil etishga turli mamlakatlarda turlicha yondashilgan. Ba'zi mamlakatlarda xorijiy kredit axboroti kompaniyalarining sho'ba korxonalari tuzilgan. Masalan, Italiyaning "CRIF" kompaniyasi 2005-yilda "Chexiya kredit byurosi"ning, 2006-yilda "Slovakiya kredit byurosi"ning, 2007-yilda Pol'shaning "InfoData" kredit axboroti kompaniyasining aksiyalarini to'liq xarid qilgan edi. Bugungi kunda u Rossiya "Kredit tarixi milliy byurosi"ning ham ta'sischilaridan biridir.

Ozarbayjon Milliy bankida 2005-yilda Davlat kredit reestri tashkil etilgan, kredit axboroti almashinuvi tizimini yaratishda Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Jahon banki, Norvegiya Markaziy banki va Bundesbank yordami jalb qilingan.

Armaniston Markaziy bankida kredit axboroti davlat reestri va nodavlat kredit byurosi ishlamoqda, foydalanilayotgan Dasturiy ta'minot esa AQShdan sotib olingan.

Ba'zi mamlakatlarda «Ma'suliyatsiz qarzdorlar kartoteka»si yaratilgan bo'lib, unda «yomon» qarzdorlar to'g'risidagi salbiy axborot yig'iladi. Agar qarzdor kredit shartnomasi shartlarini bajarmasa, u o'zi to'g'risidagi salbiy axborotning tarqalishidan qutula olmaydi. Bunday «kartoteka» bank tizimi xavfsizligi nuqtai nazaridan katta kamchilikka ega: unda qarzlarning muddatini o'tkazib yuborgan qarzdorlar hisobga olinadi, lekin banklarni qiziqtiradigan asosiy

ma'lumot, ya'ni qarzdorning boshqa bankdan kredit olgan-olmaganligi to'g'risida ma'lumot olish imkoniyati yo'q.

Jahon tajribasida faqat salbiy kredit axborotini (Avstraliya, Daniya, Latviya, Norvegiya, Ispaniya va Yangi Zelandiya), ham ijobiy, ham salbiy axborot (Angliya, AQSH, Germaniya, Rossiya, Frantsiya, O'zbekiston, Qozog'iston va boshqa ko'plab mamlakatlarda) yig'iladi hamda taqdim etiladi.

Jahon amaliyotida shaxsning sog'lig'i, irqi, diniy munosabati, siyosiy qarashi to'g'risida ma'lumotlar yig'ilmaydi va taqdim etilmaydi.

Xalqaro tajribada axborotni vakolatli maxsus institutga yuborish ixtiyoriy yoki majburiy etib belgilash amaliyoti mavjud. Ixtiyoriylik tamoyili o'z o'rnida aniq bo'lmagan ma'lumotlarning yig'ilishiga olib kelishi mumkin.

Taqdim etiladigan kredit axborotning bahosi undagi ma'lumotning naqadar darajada kengligi va batafsilligiga bog'liq. Masalan, AQSH va Buyuk Britaniyada 1 dollar atrofida, Italiyada 2 dollar, Argentinada 3 dollarni tashkil etadi.

Kredit axboroti davlat reestri (KADR) - kreditlarni davlat ro'yxatiga olish reestri (Public credit registers - PCR) deb ham atiladi. Tarixan u ipoteka kreditlash bitimlarini va ko'chmas mulk zakalatini ro'yxatga oluvchi tashkilot sifatida paydo bo'lgan. Biroq, u hozirgi vaqtda bir qator mamlakatlarda kredit byurosi vazifasini bajarmoqda. KADR va kredit byuosining farqi shundaki, KADRga axborot berish majburiydir (faqat Finlyandiya va Shri-Lankada ixtiyoriy), axborot ham qarzdor haqida emas kredit haqida yig'iladi. KADR ko'pgina mamlakatlarda Markaziy bank huzurida (lekin, Chili, Kosta-Rika, va Peruda bank nazorati organlari huzurida) tashkil etilgan. U yerdan axborot olish rejimiga o'ta qattiq talablar qo'yilgan bo'lib, faqat Markaziy bankning mas'ul xodimlari axborot olishlari mumkin. Gretsiya va Isroilda faqat bank nazorati uchungina foydalaniladi.

Markaziy bankda kredit axboroti davlat reestri tashkil etilishining bir qator sabablari bor. Xususan, kredit axboroti almashinuvi tizimini tashkil etishni Markaziy bank o'z zimmasiga olishi tijorat va bank sirini saqlashda huquqiy muammolarni keltirib chiqarmaydi. Qolaversa, kredit axborotini olishga

qarzdorlarning roziligi talab qilinmaydi. Ma'lumotlarning to'la, aniq va to'g'ri yuborilishini nazorat qilish vakolati Markaziy bankda mavjud. Bu, o'z navbatida bank nazoratining samarali olib borilishiga xizmat qiladi. Banklardan operativ ma'lumot so'rash zaruriyati keskin kamayadi. Sababi, bank kredit portfelidagi o'zgarishlar har kuni olinadi. Shuni ham aytib o'tish kerakki, bunday tizim mustaqil hamdo'stlik mamlakatlarining aksariyatida hali yo'lga qo'ymagan.

Xususiyl kredit byurolari kredit axborotini yig'ish, qayta ishlash, saqlash va taqdim etish bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxs bo'lib, qarzdorlar to'g'risidagi axborotni to'lov evaziga taqdim etadi.

Kredit axboroti almashinuvi ba'zi davlatlarda kredit byurosi, boshqalarida Markaziy bankning maxsus bo'linmasi orqali amalga oshiriladi. Jahonning 76 davlatida kredit byurolari, 72 tasida kredit axboroti davlat reestri ishlamoqda, bulardan ko'pchiligida har ikkalasi ya'ni kredit byurolari va davlat kredit axboroti reestri baravar faoliyat ko'rsatmoqda. Ayrim mamlakatlarda esa faqat bittasi, masalan, 40 ta mamlakatda faqat kredit axboroti davlat reestri, 44 tasida faqat xususiyl kredit byurosi ishlamoqda.²⁰

3.2. Kredit byuolarining texnik va dasturiyl vositalariga axborot xavfsizligi va muhofazasini ta'minlash bo'yicha qo'yiladigan talablar

“O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami” 2012-yil, 3-4-son, 32-modda, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2012-yil 23-yanvarda 2318-son bilan ro'yxatga olingan “Kredit byuolarining texnik va dasturiylvositalariga axborot xavfsizligi va muhofazasinita'minlash bo'yicha qo'yiladigan talablar” to'g'risida nizom qabul qilindi. Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida" (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995 y., 12-son, 247-modda) va "Kredit axboroti almashinuvi to'g'risida"gi (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2011 y., 40-son, 412-modda) qonunlariga muvofiq kredit

²⁰N.Xolmurodov “kredit axboroti almashinuvi ahamiyati” Jurnal “BPK”, 2012-yil, Toshkent.

byuolarining texnik va dasturiy vositalariga axborot xavfsizligi va muhofazasini ta'minlash bo'yicha qo'yiladigan talablarni belgilaydi.

Mazkur Nizomda quyidagi tushunchalardan foydalaniladi:

- kredit axboroti almashinuvi tizimi (keyingi o'rinlarda tizim deb yuritiladi) - kredit axboroti almashinuvi ishtirokchilari o'rtasida vujudga keladigan munosabatlar majmuasi;

- elektron axborot - O'zbekiston Respublikasining "Kredit axboroti almashinuvi to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq Tizim ishtirokchilari almashadigan elektron axborot, axborotni kriptografik muhofaza qilish vositalari - axborot xavfsizligini ta'minlash uchun uning kriptografik almashtirilishini amalga oshiruvchi apparat, dasturiy yoki apparat-dasturiy vositalar, bank telekommunikatsiya tarmog'i (keyingi o'rinlarda BTT deb yuritiladi) bank tizimining idoraviy telekommunikatsiya tarmog'i.

Kredit byuolarining axborot tizimlarida qo'llaniladigan axborot muhofazasining litsenziyalangan va sertifikatlangan dasturiy-texnik vositalari quyidagilarni ta'minlashi kerak:

a) tizim ishtirokchilari bo'lgan tashkilotlarni va ularning xodimlarini identifikatsiya va autentifikatsiya qilishni;

b) tizimdagi axborotlarning maxfiyligini;

c) autentifikatsiyalangan ma'lumot almashinuvini;

d) axborotni shakllantirish, uzatish, foydalanish, qayta ishlash va saqlash jarayonlarida ma'lumotlarning butligini;

e) normal foydalanish sharoitida tizimning barcha resurslariga avtorlashtirilgan tarzda kirishni;

f) foydalanuvchilarning resurslarga kirish chegaralarini belgilashni;

i) foydalanuvchilarning tizimga kirish va chiqish bo'yicha harakatlarini hamda kirish huquqlarini buzishga urinishlarini qayd etishni;

g) favqulodda holatlarda tizimning xavfsizligi va uzilishsiz faoliyatini;

f) axborot xavfsizligi bo'yicha xavflarni aniqlash va oldini olishni;

g)ma'lumotlarni zaxiralash va qayta tiklash tizimini.²¹

Kredit byuolarining dasturiy-texnik ta'minoti xavfsizlik va axborot muhofazasi bo'yicha qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davriy attestatsiyadan o'tishi lozim. Tashqaridan begonalarning kirishini va kredit axboroti o'g'irlanishining oldini olish uchun kredit byuolarining server xonalariga quyidagi talablar qo'yiladi:

- mustahkam devorlar, ishonchli to'siqlar va panjaralar;
- maxsus kodli yoki boshqa turdagi ishonchli qulflar bilan jihozlangan mustahkam eshiklar;
- tashqi kuzatuvga qarshi himoya vositalari;
- yong'in xavfsizligi va qo'riqlash signalizatsiyasining mavjudligi.

To'lov tizimi serverlarini tashqi ta'sirdan himoyalash uchun tarmoqlararo ekranlar (Firewall) hamda axborotni muhofaza qiluvchi litsenziyalangan texnik va dasturiy vositalar o'rnatilishi kerak. Kredit axborotlari almashinuvi qatnashchilarini autentifikatsiya qilish va kredit byuolari axborot tizimlarini parol` va antivirus bilan himoyalash choralari ko'rilishi kerak. Kompyuter va boshqa jihozlar ishdan chiqqan hollarda kredit byurosining uzilishsiz faoliyat yuritishini ta'minlash maqsadida tizimning zaxira tiklanish rejasi hamda zarur dastur va vositalar bo'lishi kerak. Server va eng muhim komp'yuterlarni elektr energiyasi bilan uzilishlarsiz ta'minlash uchun uzluksiz elektr ta'minoti qurilmalari (UPS) va dizel-generator bo'lishi kerak.

Kredit byurosi tizim ishtirokchilari bilan axborot almashinuvi uchun BTT yoki umumiy foydalanishdagi telekommunikatsiya tarmog'idan foydalanadi.

Kredit byurosining Markaziy bank va kredit tashkilotlari bilan elektron axborot almashinuvi Axborotlashtirish Bosh markazi bilan tuzilgan shartnoma asosida BTT orqali amalga oshiriladi. Bunda quyidagi xavfsizlik choralari ko'rilishi kerak:

²¹Adliya vazirligida 2012-yil 23-yanvarda 2318-son bilan ro'yxatga olingan "Kredit byuolarining texnik va dasturiy vositalariga axborot xavfsizligi va muhofazasini ta'minlash bo'yicha qo'yiladigan talablar" to'g'risida nizom.

a) kredit axborotlari bilan ishlash uchun faqat tegishli ruxsatga ega bo'lgan xodimlar qo'yiladi;

b) foydalanuvchilarning tizimga kirishi uchun autentifikatsiya qilishlogin va parol (8 ta belgidan kam bo'lmagan raqam va simvollar kombinatsiyasi hamda parol` va loginlarni muddati tugashiga qarab o'zgartirish imkoniyati bo'lishi lozim. Parolni amal qilish muddati bir oydan oshmasligi lozim)apparat-dasturiy vositalar yordamida amalga oshiriladi;

c) kredit byurosining kredit axborotlari almashinuvida qatnashuvchi xodimlarining server va komp`yuterlar telekommunikatsiya tarmoqlari orqali ishlashi uchun apparat-dasturiy vositalar bilan jihozlanishi kerak;

d) kredit byurosidagi axborotlarni qayta ishlash, uzatish va qabul qilish uchun ajratilgan server va komp`yuterlarga umumiy lokal tarmoqqa ulangan boshqa komp`yuterlardan kirish imkoniyati bo'lmasligi kerak;

e) kredit byurosi tomonidan uzatiladigan va qabul qilinadigan har qanday axborot elektron raqamli imzo bilan tasdiqlanishi hamda bajarilgan amal bo'yicha ma'lumot avtomatik ravishda elektron jurnalga kiritilishi kerak.Bunda, elektron raqamli imzo yopiq kalitining egasi quyidagilarni amalga oshirishi shart:

- elektron raqamli imzoning yopiq kalitidan foydalanish ustidan nazoratni ta'minlashi;

- elektron raqamli imzo kaliti sertifikatini bergan Ro'yxatga olish markaziga elektron raqamli imzoning yopiq kalitidan foydalanish rejimi buzilganligi yoki buzilishi ehtimoli borligi to'g'risida xabar qilishi va elektron raqamli imzo kaliti sertifikatining amal qilishini to'xtatib turishni yoxud mazkur sertifikatni bekor qilishni talab qilishi;

- o'zi vakil bo'lgan yuridik shaxsning qayta tashkil etilganda va tugatilganda, bu haqda elektron raqamli imzo kaliti sertifikatini bergan Ro'yxatga olish markaziga xabar qilishi;

f) elektron raqamli imzo ochiq kalitining foydalanuvchisi elektron raqamli imzoning haqiqiyliги tasdiqlanmagan hollarda elektron raqamli imzoning yopiq kaliti egasiga xabar beradi;

g) kredit byurolari tomonidan kredit axborotiga tegishli bo'lmagan axborotlarning uzatilishi taqiqlanadi;

h) kredit byurosi tomonidan uzatiladigan va qabul qilinadigan ma'lumotlar so'nggi yangilangan bazali antivirus dasturi yordamida viruslar mavjudligini aniqlash uchun tekshirilishi kerak;

i) elektron axborotlar almashinuvida virtual xususiy tarmoqlar (VPN) asosida tashkil etilgan himoyalangan aloqa kanallari qo'llanilishi kerak.

h) elektron axborotlar almashinuvida virtual xususiy tarmoqlar (VPN) asosida tashkil etilgan himoyalangan aloqa kanallari qo'llanilishi kerak. Axborotning maxfiyligini ta'minlash uchun qo'shimcha axborotni muhofaza qilish vositalari qo'llanilishi mumkin.

Tizim ishtirokchilari kredit axborotlari almashinuvi uchun umumiy foydalanishdagi telekommunikatsiya tarmoqlaridan tegishli shartnomalar asosida foydalanishlari mumkin.

Bunda:

foydalanuvchilarni tizimga kirishida autentifikatsiya qilish login va parol (8 ta belgidan kam bo'lmagan raqam va simvollar kombinatsiyasi) yoki apparat-dasturiy vositalar yordamida amalga oshiriladi. Autentifikatsiya natijasi uch marta noto'g'ri bo'lgan holda, tizim berkitilishi kerak;

a) kredit byurosining foydalanuvchilar, axborotni yetkazib beruvchilar va boshqa kredit byurolari bilan elektron axborot almashinuvi "SSL" protokoli bo'yicha amalga oshirilishi, virtual xususiy tarmoqlar (VPN) asosida tashkil etilgan himoyalangan shifrlangan aloqa kanallari qo'llanilishi kerak;

b) kredit byurosi serverlari tomonidan uzatiladigan va qabul qilinadigan ma'lumot so'nggi yangilangan bazali antivirus dasturi bilan viruslar mavjudligi bo'yicha tekshirilishi kerak.

3-bob bo'yicha xulosa

Xorijiy mamlakatlar kredit axboroti almashinuvini ko'radigan bo'lsak, almashinuvi tizimi har xil mamlakatlarda turlicha tashkil qilingan. Ularning asosiy 2 shakli mavjud, nodavlat kredit byurosi (xususiy, notijorat, jamoat tashkiloti) hamda Kredit axboroti davlat reestri. Kredit axboroti almashinuvi borasida Jahon bankining tamoyillari, ya'ni ham yuridik ham ismoniy shaxslar to'g'risidagi axborot yig'ish va taqdim etish, ham ijobiy, ham salbiy axborotni yig'ish va taqdim etish, - subyektlarning o'zi to'g'risidagi axborotni olish imkoniyatining bo'lishi lozim.

Amerika Qo'shma Shtatlari miqyosida ko'radigan bo'lsak bu mamlakatda mingga yaqin kredit byurolari mavjud. Ular banklar, ipoteka kompaniyalari hamda boshqa kreditorlardan, shuningdek, davlat tashkilotlaridan qarzдорlarning to'lov qobiliyatiga ta'sir qiladigan sudda ko'rilgan da'volari, soliq qonunchiligi borasidagi tartibbuzarliklar to'g'risida axborotni yig'adilar. Buyuk Britaniyada esa kredit bitimlari to'g'risidagi ma'lumot ommaga ochiq bo'lib, oshirib yuborilgan majburiyatlar, shubhali qarzlار, firibgarlik, jinoiy daromadlarni legallashtirishning oldini oladi, qarzlarni undirishda asqotadi. Bu mamlakatda qarzдорlarning kredit axborotini yig'ish bilan shug'ullanadigan ikkita xususiy kredit agentligi mavjud. Germaniyada barcha kreditorlar jumladan banklar qarzдорlar to'g'risidagi ma'lumotlarni Kredit operatsiyalarining xavfsizligini ta'minlash jamiyatiga yuboradilar.

Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan Kredit Byurosiga texnik va dasturiyvositalariga axborot xavfsizligi va muhofazasini ta'minlash bo'yicha qo'yiladigan talablar to'g'risida nizomni qabul qilinishi Kredit Byurosining samarali faoliyat yuritishini ta'minlash borasida qilingan ishlardan biri deb takidlashimiz mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

“O‘zbekistonda kredit ma’lumotlarini almashtirish tizimi” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi yuzasidan quyidagi xulosalarga kelindi:

- kredit ma’lumotlarini almashtirish tizimining iqtisodiy mohiyati hamda nazariy-huquqiy asoslari keltirilib, kredit axborotiga quyidagicha ta’rif berildi: Kredit axboroti - qarzdorning qarzni qanday qaytarganligi, agar u boshqa shaxslarning kreditlari uchun kafillik bergan bo’lsa, ularni qanday bajarganligi to’g’risidagi ma’lumotlarni o’z ichiga oladi.

- Qonunchilik palatasi tomonidan 2011-yil 11-noyabrda qabul qilingan Senat tomonidan 2011-yil 26-avgustda ma’qullangan “Kredit axboroti almashinuvi to’g’risida”gi qonuni katta burulish yasadi deb ayta olamiz.

- respublikamizda kredit axborot almashinuvi bo’yicha huquqiy bazaning yaratilishi va buning asosida zamonaviy kredit axboroti almashinuvi tizimining tashkil etilishi, avvalo, kredit tavakkalchiligining kamayishi, kredit intizomining mustahkamlanishi, kredit portfeli sifatining yaxshilanishi, shuningdek, muammoli aktivlar bo’yicha zaxira yaratish xarajatlari kamaytirilishi, kredit portfeli hajmining oshirilishi, kredit bozorida raqobatning oshirilishi va foiz stavkalarining kamaytirilishiga erishildi;

- kreditlarni qaytarmaslik xavfini kamaytirishda kredit axboroti almashuvining samarali tizimini yaratish orqali yirik kredit sub’ektlarining kredit xatarlarini to’g’ri baholash, qarz oluvchilarning kreditga layoqatliligi, moliyaviy ahvoli va ularning ishbilarmonlik qobiliyatini tahlil qilish imkoniyatlari yuzaga chiqadi;

- “kredit axborot almashinuvi to’g’risida”gi Qonun kredit axboroti almashinuvi sohasidagi munosabatlarning huquqiy bazasini shakllantirgan holda, kreditorlar va qarzdorlarning kredit axboroti almashinuvida ishtirok etishlari uchun teng sharoitlar yaratadi. Qarz oluvchilarning kredit tarixini tegishli davlat

tashkilotlari va boshqakredit axborot yetkazib beruvchilar ma'lumotlari hisobiga kengaytiradi, hamda qarz oluvchilarning kredit tarixi to'g'risidagi axborotlar bazasini boyitadi;

- Kredit axboroti almashinuvi tizimi samaradorligini ta'minlash uchun dasturiy-texnik ta'minot, axborotlarni muhofaza qilish, o'zgartirish va oshkor qilish bo'yicha zarur choralar amalga oshirilgan. Hozirda ishlab turgan baza platformasida zahira baza ham yaratigan bo'lib, u kredit byurosi faoliyatining uzluksizligi ta'minlamoqda;

- Kredit axboroti almashinuvi tizimi jismoniy va yuridik shaxslarning avval olingan kreditlari va boshqa qarz majburiyatlari bo'yicha kafolatlarning bajarilishi to'g'risida ma'lumotlardan tashkil topgan kredit tarixini shakllantiradi. Kredit tarixi esa, tizimni faoliyatga keltiruvchi asosiy manba hisoblanadi. Bu qarz oluvchi majburiyatlari va ularni ijro etish to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek, qarz oluvchiga moliyalash taqdim etilishi xatarini baholash uchun ta'sir etadigan (bankrotlik, sud qarorlari, muassislar tarkibi) boshqa ma'lumotlardir;

- kredit qaytmaslik xatarini kamaytirish uchun qarz oluvchining moliyaviy holati va taqdim etilgan loyihalarni tahlil qilishning o'zi yetarli emas. Qarz oluvchi to'g'risida axborotga ega bo'lish kreditning qaytmaslik xatarini oldini olishning eng muhim omillaridan biridir.

Xulosa qilib aytganda, kredit axborot almashinuvi qonunchilikda talab etilganidek kredit tarixi to'g'risidagi axborotlar bazasini boyitib, fuqarolar va tadbirkorlik sub'ektlarining kredit arizalarini qisqa muddatlarda ko'rib chiqish imkoniyatini vujudga keltirishi, qisqa muddatlarda kredit ajratish hamda kredit bo'yicha sarf-xarajatlarni kamaytirishga olib kelishi, bank operatsion xarajatlari hamda tavakkalchiliklarni kamaytirib, to'lov intizomining mustahkamlanishiga xizmat qilishi lozim.

Qilingan xulosalar asosida bitiruv malakaviy ish bo'yicha quyidagi takliflar berildi:

1. Tijorat banklari tomonidan yuboriladigan (yosh oila iste'mol, ta'lim krediti, nooziq-ovqat mahsulotlarini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash, oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishni qo'llab-quvvatlash, kichik biznes uchun ajratilgan kreditlar, sanoat uchun ajratilgan kreditlar) kabi hisobotlarni KAMI bazasidan olish;
2. KAMI ish faoliyati onlayn kun rejimida ishlashini tashkil qilish;
3. Kredit Byurosi tomonidan mijos korxona balans hisoboti ma'lumotlarini olishni ham joriy qilish;
4. Kredit Byurosi tomonidan kafil to'g'risida ham ma'lumot berishni joriy qilish;
5. Tijorat banklari berayotgan kreditiga aloqador bo'lgan barcha ma'lumotlarni kredit byurosidan o'tkazish;
6. KAMI tomonidan muddati o'tgan kreditlar bo'yicha to'lovni qaytarishda birinchi navbatda hisoblangan foizlar to'lovini amalga oshirishni tashkil qilish;
7. Kredit Byurosi tomonidan mijozning kommunal to'lovlar oldidagi majburiyati to'g'risida ham ma'lumot olishni joriy qilish.

O'ylaymizki, bu takliflar kredit ma'lumotlari almashinuv tizimining yanada rivojlanishida ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Me'yoriy-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasi "Markaziy banki to'g'risida"gi Qonuni. 21-dekabr 1995-yil (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).
2. O'zbekiston Respublikasi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. 25-aprel 1996-yil (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).
3. O'zbekiston Respublikasi bank faoliyatini tartibga soluvchi Qonunlar to'plami. T. O'zbekiston 2011y. 448b
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2011-2015 yillarda Respublika Moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi 2010-yil 26-noyabrdagi PQ-1438 sonli Qarori
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 6-maydagi PQ-2344-sonli "Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning resurs bazasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 5-oktyabrdagi «Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-4848-sonli Farmoni
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni, 2017-yil 7-fevral
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 24-aprelda qabul qilingan «Aktsiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-4720-sonli Farmoni
9. O'zbekiston Respublikasi "Garov reestri to'g'risida"gi qonun, 2013-yil 23-oktyabr.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari va ma'ruzalari

10. Karimov I.A. «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda». Birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining o'n to'rtinchi sessiyasidagi ma'ruzasi, T.: O'zbekiston, 1999, 34 bet

11. Karimov I.A “Bizning bosh maqsadimiz- jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir”. –T.: O'zbekiston, 2005.20-23b

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruzasi. Manba:O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining matbuot xizmati, 2017-yil 15-yanvar

13. Karimov I.A “Mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimizning hayot darajasini yuksaltirish barcha demokratik yangilanish va iqtisodiy islohotlarimizning pirovard maqsadidir”.- T.: O'zbekiston, 2007,31b

14. Karimov I.A “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari”. – T.: O'zbekiston, 2009, 44b

15. Karimov I.A Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to'g'risida. Tuzuvchi F.M.Mullajanov. -T.: O'zbekiston, 2011. -528 b.

16. Mirziyoyev Sh.M “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. – Toshkent:O‘zbekiston,2016. – 56b

17. Mirziyoyev Sh.M “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi”. – Toshkent: “O‘zbekiston”,2017. – 48b

3. Darslik va o'quv adabiyotlari

18. Abdullaeva SH. Z. Bank ishi: o'quv qo'llanma. - Toshkent: Moliya, 2010. -312b.
19. Abdullaeva SH.Z. Pul, kredit va banklar. Darslik.-T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2008,-335b
20. Abdullaeva SH.Z. Pul, kredit va banklar. Toshkent: Moliya, 2000,-312b
21. Blant M. Financial regression. -M.: AST. 2008. -350 p
22. Bobaqulov T.I. Milliy valyutani barqarorligini ta'minlash:muammolar va yechimlar. Monografiya. - Toshkent., 2007. – 183 b
23. G'ozibekov D.G. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. Toshkent. 2003. -313 b
24. Mirzaev F.I. Tijorat banklarining raqobati va raqobatbardoshligini oshirish yo'llari Jamiyat va boshqaruv. — Toshkent, 2009. — №1, —B. 58 —60
25. Mullajonov F.M. O'zbekiston bank tizimi barqaror rivojlanish yo'lida.//Bozorr, pul va kredit. -Toshkent, 2009. -№1. B. 8-9
26. Баландин А.В. Японские «банки нового типа»// Банковское дело. - Москва.: 2014. -№2. -С.98-101
27. Кудашева Ю.С. Оценка конкурентоспособности коммерческих банков//Деньги и кредит. -Москва, 2006. -№11.-С.46-52
28. Портер М. Конкурентная стратегия: методика анализа отраслей и конкурентов. -М.: Альпина бизнес букс. 2007. -453 с
29. Тархунина Ю.В. Конкуренция и конкурентные стратегии. Учеб. Метод. Пособ. -М.: Дело и сервис, 2008. -272 с
30. Лаврушина И.О. Управление деятельностью коммерческого банка.М.: ТЕИС. 2002. -634 с.

31. Мирзаев Ф.И Пути повuшения конкуренции и конкурентоспособности коммерческих банков FF Экономика и финансу. Москва. 2007. —№12, —С 26-29

32. Тонусян Г.А. Международное конференция. // Банковское дело.- М.: 2005. - №5. -С. 8-9

33. O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 7-dekabrdagi 320-II-son Qonuni tahririda-Oliy Majlis Axborotnomasi, 2002 y.

4. Davriy nashlar (gazeta va jurnallar)

34. Mirzayev F.I. “Banklararoraqobat: mohiyati, shakllanishivarivojlanishbosqichlari” MonografiyaT: “Moliya”, 2008y

35. Mirzayev F.I. O'zbekistonda banklararo raqobatni shakllantirishning konseptual asoslari. Iqtisodi fanlari nomzodi ...Diss.avtoreferati.-T.: BMA, 2011.-90-151b.

36. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining yillik hisobot ma'lumotlari. 2016 y.

37. N.Xolmurodov “kredit axboroti almashinuvi ahamiyati” Jurnal “BPK”, 2012-yil, Toshkent.

38. N.Xolmurodov “kredit axboroti almashinuvi kredit riskini kamaytirishdagi ahamiyati” Jurnal “BPK”, 2011-yil, Toshkent.

39. Iqtisodiyot va innovatsiyalar jurnali №5 , sentabr-oktabr, 2015-yil.

5. Internet resurslari.

41. www.stat.uz (O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi sayti)

42. www.cbu.uz (O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki sayti)

43. www.tfi.uz (Toshkent moliya instituti sayti)

44. www.cbr.ru (Rossiya Markaziy banki sayti)

45. www.aloqabank.uz (AT “Aloqabank” sayti)

46. www.bpk.uz (O'zbekiston Respublikasi Bozor, Pul va Kredit jurnali sayti)

47. www.uzrepot.com (O'zbekiston Respublikasi yangiliklar sayti)

48. www.iqtisodiyot.uz(O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot Vazirligi sayti)